

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Fakultet dekani
f.f.n., dots. I.M.Azimov
“ ” _____2012-y.

5141100-“O‘zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta’lim yo‘nalishi IV kurs
404-guruh talabasi **Ismoilov Ilyos Abduqayumovichning**
“Nishotiy “Husn-u Dil” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____K.Mullaxo‘jayeva
“O‘zbek adabiyoti” kafedrası
dotsenti., f.f.n.

Taqrizchilar:
_____H.Homidov
“O‘zbek adabiyoti” kafedrası
professor.,f.f.d.

_____D.Yusupova
O‘zMU dotsenti., f.f.n.

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“O‘zbek adabiyoti” kafedrası mudiri
f.f.n., dots. _____K.Mullaxo‘jayeva
“ ” _____2012-y.

TOSHKENT – 2012

Mundarija

Kirish. BMIning umumiy tavsifi.....

Birinchi bob. Obrazli fikrlash tadriji

1.1. An'ana va yangilik.....

1.2. "Husn-u Dil" – "Xamsa"ga javoban yozilgan doston.....

1.3. Doston kompozitsion qurilishining o'ziga xosligi.....

Ikkinchi bob. "Husn-u Dil" dostonida g'oya va badiiyat uyg'unligi

2.1. Mohiyat, timsol va ramz.....

2.2. Poetik ifodada ijodkor mahorati.....

Uchinchi bob. Dostonning amaliyotga tatbiqi masalalari

3.1. Doston badiyatini o'rgatish va amaliy tavsiyalar.....

3.2. "Ramz", "majoz" va "ko'chim" tushunchalarini o'quvchilarga o'rgatishda
"Husn-u Dil" dostonidan foydalanish va buning afzal jihatlari.....

3.3. Nishotiy munozaralarida hayot nafasi mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi.

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

Ilova (dostonning nasriy tabdili)

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan koʻpgina ijodkorlar asarlari xolisona tadqiq etilmoqda. Bu masalaning ahamiyatli ekanligiga yurtboshimiz “Behbudiy, Usmon Nosir, Choʻlpon, Fitrat va boshqalarning ijodi va dunyoqarashini teran va xolis tadqiq etish lozim boʻladi”, deb istiqlolning ilk yillaridayoq urgʻu bergan edilar¹.

Adabiyotshunosligimiz yozuvchilar merosini obyektiv tadqiq etish borasida soʻnggi yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida koʻpgina yutuqlarga erishdi. Biroq hanuz asl bahosini olmagan, tahlil-u tahqiqqa arzigulik asarlar mavjud. Ularni oʻrganish, mazmunini ochib berish bugungi kunda adabiyot ilmi bilan shugʻullanayotgan olimlarimiz zimmasidagi hal etilishi lozim boʻlgan dolzarb masalalardan biridir.

Ana shulardan biri Mavlono Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni hisoblanadi. Garchi asar haqida V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimov, I.Adizova kabi olimlarning tadqiqotlari boʻlsa-da, hozirgacha asarning mohiyati biror-bir ishda toʻgʻri ochib berilgan emas. Yaʼni “Husn-u Dil”ning butunlay tasavvufiy mazmunidagi manba ekanligi hozirgacha isbot etilgancha yoʻq². Vaholangki, dostondagi har bir soʻz tasavvuf falsafasini ifodalashga qaratilgan. Ushbu 14184 misralik yirik asarni ilk bora asl maʼnosida – tasavvufiy-irfoniy mazmunda oʻrganish BMIning mavzusi qay darajada dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, “Husn-u Dil”ning kompozitsion qurilishi, ularda masal va munozaralarning tutgan oʻrni, umumiy mazmun bilan uzviy bogʻliqligi, mazmun ifodasida qoʻllangan tasvir usullari, asarning badiiy qimmatini ilk bora yaxlit bir sistema holida tadqiq etildi. Negaki adabiyotshunosligimiz “Husn-u Dil”ning shunday tahliliga ehtiyojmand. BMI mavzusi shu istakni bajarishga qaratilganligi bilan ham dolzarblik kasb etadi.

¹ Karimov I. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.:Oʻzbekiston, 2012. 91-b.

² Izoh: birgina Adizova I. “Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi” qoʻllanmasida “Husn-u Dil”ning tasavvufiy mazmundagi asar ekanligini aytib oʻtgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muhammadniyoz Nishotiy ijodiga doir qarashlar V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimova, A.Qayumov, M.Tursunov, B.Valixo'jayev, M.Abduvohidova, Ayyomiy, I.Adizovalarning tadqiqotlarida uchraydi³. Ammo ularda "Husn-u Dil" orifona mazmunda emas, balki dunyoviy – real borliq haqidagi asar sifatida tekshiriladi, dostonning zohiriy ma'nolari borasida so'z yuritiladi. Asar qo'lyozmalari, nusxalari, matni, shoir hayoti va ijodiga ko'proq urg'u beriladi.

Kezi kelganda aytish kerakki, ko'pchilik adabiyotshunoslar Nishotiyning munozaranavis sifatidagina yaxshi taniydilar. Chunki doston to'g'risida hozirga qadar qilingan ishlarning aksariyati shoir munozaralari haqida. Holbuki, munozaralar "Husn-u Dil"ning ajralmas bir qismi, doston bilan yaxlit olib o'rganilganidagina ularning asl mazmunini kashf etish mumkin. Negaki, munozaralar shunchaki insoniy illatlarni tanqid qilish uchun emas, balki tasavvufga doir tushuncha va qarashlarni ifodalash uchun asarga kiritilgan. Nishotiy dostonida munozaralar, hikoyatlardan o'z qarashlarini ifodalash uchun vosita sifatida foydalangan, xolos.

Nima bo'lganda ham, ayni paytga qadar qilingan ishlar bizning yutug'imiz. Birinchidan ular ishning o'rganilganlik darajasini tashkil etadi. Ikkinchidan, asar haqida to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Eng muhimi, mazkur tadqiqotlar asar mohiyatiga qadar qilinishi lozim bo'lgan ishlarni (matn bilan bog'liq hajm, sana, muallif bilan bog'liq ishlarni) bajarib berganligi bilan qimmatlidir.

Ushbu BMI "Husn-u Dil"ni yaxlit, sitemaviy ravishda, tasavvufiy mazmun bilan bog'lagan holda o'rganishi bilan ulardan farqlanadi.

³ Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand, 1960.

Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.

Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi, 1964.

Xolid Rasul. Nishotiy va uning "Husn-u Dil" dostoni//O'zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son.

Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirik.-T.: G'ulom, 1967. 1-18-betlar.

Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchilik.-T.:1973. 29-56-betlar.

Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975.

O'zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar.

Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti.-T, 1961. 5-bet

Tursunov M., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi.-T.: Fan, 1982. 101 – 104-betlar

Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan.-T.:Fan, 1974.

Abduvohidova M. Nishotiyning "Shohboz va Bulbul" munozarasi//Adabiy meros.-T.: 1976, 3 – son

Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar.-T.:1983.

Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-T, 2006. 178 – 188-betlar

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek adabiyoti” kafedrasining “2010-2015-yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: “Husn-u Dil” to‘g‘risidagi mavjud ishlarni o‘rganib, tegishli xulosalar chiqarish va dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etib, tasavvufiy mazmunni o‘zida aks ettirganini isbot etish.

Tadqiqotning vazifalari. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilanadi:

- mavjud ishlarni qiyosiy o‘rganish;
- dostonning ichki tuzilishini belgilash;
- obrazlarni tasniflash va ular anglatgan ma’nolarni izohlash;
- badiiy xususiyatlarini, xususan, she’riy san’atlarini tahlil va tavsif etish;
- “Husn-u Dil” irfoniyl adabiyot namunasi ekanligini isbot etish.

Tadqiqot obyekti Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, ma’ruzalaridagi milliy-madaniy merosimiz, adabiyotimizni o‘rganishga doir qarashlar hamda mumtoz adabiyot, xususan, tasavvuf sohasida olimlar erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar ushbu BMI uchun nazariy-metadologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Jumladan, BMIda N.Komilov, I.Haqqulov, V.Abdullayev, P.Shamsiyev, H.Homidov, G‘.G‘ulom, X.Rasul, M.Qosimova kabi olimlarning mumtoz adabiyot, epik she’riyatga doir tadqiqotlaridagi yutuqlarga tayanildi.

Mavzuni o‘rganishda struktural, formal va lingvistik metodlarga ko‘proq murojaaaat qilindi. Shuningdek qiyosiy-tarixiy, biografik metodlarga ham qo‘llanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. O‘zbek adabiyotida ilk bora “Husn-u Dil” dostoni g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yaxlit, irfoniyl mazmunni nazarda tutib , tasavvufiy mazmun bilan bog‘lab o‘rganish – tadqiqotning ilmiy yangiligidir. BMIning mazkur jihati yana quyidagilarda nomoyon bo‘ladi:

- doston kompozitsion qurilishining to‘liq tavsiflanganligida;

- barcha obrazlar jamlanib, o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra klassifikatsiyalanganligi hamda anglatgan mazmuni inkishof etilganida;
- asar uchun xarakterli bo'lgan badiiy san'atlar tahlil qilinib, ulardan namunalar taqdim etilganida;
- asarning irfoniy mazmun anglatishini sistemali ochib bera olganida;
- dostonni pedagogik jarayonga tatbiq etish borasida amaliy ko'rsatmalar bera olganida;
- dostonning baytma-bayt ilmiy tabdil qilinganida.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. BMIIdagi xulosalarga asoslanib ishning muayyan qismi O'zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik litseyida joriylashtiridi (dars ishlanmasi ilova qilinadi).

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, lug'at hamda ilovalardan iborat.

I. 1. An'ana va yangilik

Mavlono Muhammadniyoz Nishotiy mumtoz o'zbek adabiyotining XVII asr oxiri, XVIII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biridir. Shoir mavzu jihatidan rang-barang va turfa janrlarga boy ijodiy merosi bilan adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Nishotiy o'z ijodida buyuk Navoiy va Fuzuliy singari ustozlariga ergashib, ularning hayotbaxsh g'oyalarini, o'lmas fikrlarini davom ettirdi, g'azallariga muxammaslar bog'ladi. Ayniqsa, shoir ijodida "Husn-u Dil" dostoni g'oyaviy – badiiy fazilatlar bilan alohidalanib turadi. Unda ijodkor adabiyotning bosh mezonlariga rioya qilgan holda qalam tebratib, unutilmas va ehtiromga loyiq badiiy asar yaratadi. Obrazli fikrlashning kamdan-kam uchrashi mumkin bo'lgan namunasini ko'rsatib berdi.

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida 10 dan ortiq Nishotiy taxallusli shoirlar ijod etgan⁴. XVIII asr birinchi yarmida yashab o'tgan xorazmlik o'zbek shoiri Muhammadniyoz ham Nishotiy – "suyunish, shodlik" taxallusi bilan ijod qilgan. U o'z asarlarini o'zbek tilida yaratib, adabiyotimiz rivojiga munosib hissasini qo'shadi. Nishotiyning hayotiga, ijodiga doir ma'lumotlar manbalarda juda kam uchraydi. Ammo ularda shoir yashagan davrga oid aniq ishoralarning uchrashi xarakterlidir. Jumladan, Bayoniy Pahlovonquli Ravnaq va Muhammadniyoz Nishotiyning bir davrda (Temurg'ozixon zamonida) yashaganligi va bu ikki shoirning "sho'x yo'sinda" mushoira qilganligi haqida ma'lumot beradi⁵. Shoirning turli bayozlar, adabiy to'plamlar orqali yetib kelgan asarlari uning ijod yo'lini o'rganishda qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlaganimizdek, Nishotiy hayoti va ijodi haqida bizgacha to'liq ma'lumot yetib kelgan emas. Shoirning shaxsiy hayoti haqida aytish mumkin bo'lgan eng to'g'ri va ba'zi bir ma'lumotlarni o'z asarlari orqali bilib olish mumkin, xolos.

⁴ Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975. 4 – 5-betlar.

⁵ Bayoniy. Tarixi Xorazm. O'zSSR FA Sharqshunoslik instituti. In. №7421

Kirish boblarda aytilishicha, Nishotiy Xorazmda tugʻilib, umrining asosiy qismini shu vohada oʻtkazgan. Ona vatani haqida shunday yozadi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon gavharim.
Dema oni bor edi jannat misol,
Yetmaguvsi vasfiga vahm-u xayol.
Xalqi aning barchasi ishrafizo,
Xulqi xush-u nutqi dogʻi dilkusho.
Ilm eilining vasfi jahondin fuzun,
Har ne gumon aylasang, andin fuzun.
Kim boʻla olgʻay alarga mustaviy,
Desa xudo, andaki hal yastaviy⁶.

Shoir ijodiga bagʻishlangan ishlarda hayoti borasidagi shunday taxminlarga duch kelamiz: “Nishotiy dostonning yozilishini aniq koʻrsatib,

Muddati tarixini etsam bayon,
Xatmi Dil-u Husndur, ey nuktadon, - deydi.

Bu tarixlar doston milodiy 1778 – yilda yozilgani maʼlum boʻladi. Ayyomiy “Oʻt chaqnagan satrlar” kitobida Nishotiy dostonni 77 yoshida yozgan deydi. U bu maʼlumotning manbasini koʻrsatmaydi. Agar shu dalil toʻgʻri boʻlsa, Nishotiy 1701-yilda tugʻilgan, deyish mumkin boʻladi⁷.”

Muhammadniyoz Xivadagi maktab madrasalarida oʻqib bilim olgan, koʻpgina ilmlarga, jumladan, sheʼriyatga alohida qiziqish bilan qaragan. Zamonasining madaniyatli, maʼrifatli kishisi boʻlib yetishgan va “Nishotiy” taxallusi bilan sheʼrlar yozib, xalq orasida tanilgan. Bizgacha yetib kelgan yirik dostoni “Husn-u Dil”dan maʼlum boʻlishicha, u oʻzbek, arab, fors-tojik tili va adabiyotini chuqur oʻrgangan. Shoirlik mahoratini yuksak darajaga koʻtarishda yunon adabiyoti va Navoiy, Ganjaviy, Dehlaviy, Fuzuliy kabi ustozlardan saboq oldi, oʻz asarlarida ular anʼanalarini davom ettirdi, ularga ergashdi, shu bilan bir qatorda u Yunon, Eron va Oʻrta Osiya xalqlarining qadim madaniyati, koʻhna tarixi bilan yaqindan tanishdi.

Maʼlumki, XVIII asrning 40-60 – yillarida Xorazm xonligining siyosiy ahvoli va xoʻjalik hayoti gʻoyatda ogʻir edi. Bunga bosh sabab xonliklar oʻrtasidagi

⁶ Nishotiy. Husn-u Dil. Lirik.-T.: Gʻ. Gʻulom, 1967. 22 – 23-betlar. Keyingi misollar shu kitobdan olinadi va sahifalari qavsda koʻrsatiladi.

⁷ Adizova I. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi.-T, 2006. 179 – 180-betlar

turli nizolar, urushlar bo'lgan. Xalq tomonida turgan shoirlar, olimlar bu holdan qattiq iztirob chekkan, taqibga uchragan. Shu yillarda Nishotiyning ham ahvoli yomonlashadi. Shoirning aytishicha, Xorazm taxtiga kelgan yangi hukmdorlar uning mol-mulki va uy-joyini tartibga olib, ko'pgina adolatsizliklar qilishgan. Natijada ona vatanini tashlab, musofirlik mashaqqatlarini tortishga majbur bo'lgan va do'sti bilan yo'lga chiqib, Buxoro xududiga kelishgan.

Charxi duniy nogoh o'lub badmizoj,
Dun eliga berdi kamoli rivoj.
Moliki amlok o'lub ul boj o'lub,
Bizga iloji aning ixroj o'lub.
Chiqmoqi fikr aylabon ikki rafiq,
Ul dedi: G'urbat sari boshla tariq.
Xullas o'lub mulk-u vatandin judo,
Soldim o'zim g'urbati shiddat aro.
Toki Buxoro sari qo'ydim qadam,
Ohi buxoriy aro bo'ldim adam. (25)

Ammo bu vaqtdagi Buxoro xonligining ahvoli tanglik borasida Xorazm hayotidan qolishmas edi. O'sha yillari o'lkada ashtarxoniylar, so'ng mang'itlar taxtni egallab, xalqqa nisbatan adolatsizliklar, jabr-zulm avj olgandi. Ahvol shunday bo'lgach Nishotiyning Buxoroga kelib biror-bir ro'shnolik ko'rishini dargumon edi. Dostonda bot-bot takrorlashiga qaraganda shoir ko'p bora musofirchilik uqubatlariga yo'liqqan. Tanish-bilish va turar joyining yo'qligi iztirobga sologan:

G'urbat erur barcha qotog'din-qotig',
Lek netay baxtga bo'lmas sotig' ...
To'ma uchun shom-u sahar nolishim,
Tifl kibi barmog'-u so'rmoq ishim ...
Ming hunari etsa g'arib o'lg'ay ayb,
Oxirida bahrasidur chunki rayb ...
Qay bir balo vasfini tahrir etay,
Yoki qay-u dardni taqrir etay?
Bahrda suv o'rniga bo'lsa madod,
Safhai aflok uza yozsang savod,
Bu quribion qolmag'ay aning yeri,
Lek yozilmay yana mingdan biri. (26)

Nishotiy shunday sharoitda ham ijodini davom ettira oldi. Butun iste'dodini ko'rsatib beruvchi "Husn-u Dil"ni yaratdi. Chekkan dardlarini, kechirgan og'ir

kunlari asarning jonli, ta'sirchan, ko'ngildagidek chiqishiga zamin bo'lgani aniq. Har holda inson qiyin damlarda hayot, umr haqida ancha chuqurroq fikrlaydi. Voqeliklarni teranroq mushohada qiladi, past-u balandi borasida tafakkur qiladi.

Muhammadniyozning Buxoroda nechayil yashagani, qachon va qayerda vafot etgani ma'lum emas.

Nishotiy o'zbek epik poeziyasining go'zal badiiy yodgorligi bo'lgan "Husn-u Dil"ni sharq xalqlari adabiyotida ko'p aslar mobaynida qayta ishlanib mashhur bo'lib qolgan Husn va Dil haqidagi afsonaga asoslanib yaratgan. Mazkur afsonaning dastlab qaysi xalq ijodiyotida, qachon vujudga kelgani ma'lum emas. Biroq u barcha mashhur, qadimiy sayyor sujetlar singari Sharqda, turli xalqlar yozma adabiyotida ishlanib, ularning ma'daniy-adabiy boyligi xazinasiga qo'shilgan. Bunday an'anaviy sujetlar Yaqin Sharq va O'rta Osiyo xalqlari yozma adabiyotida ko'p uchraydi. Chunonchi, Layli va Majnun, Bahramgor, Iskandar, Yusuf va Zulayho, Xusrav va Shirin, Gul va Navro'z, Vomiq va Uzro, Tohir va Zuhro afsonasi sujetlari aslar mobaynida ko'plab shoirlarni ilhomlantirib kelgan. Turli davrlarning ulkan iste'dodlari bunday ko'chmanchi sujetlar asosida asarlar yaratib, bu jarayonda ijodiy individuallikka intilganlar⁸.

Barchamizga ma'lum va manzur bo'lgan "Xamsa"lar ham sayyor sujetlar asosida yaratilgandir. Zero, xamsa yaratishning o'zi bir an'ana. Shu jumladan, Nishotiy ham o'ziga qadar mashhur bo'lgan sujetni qayta ishlagan, undan ijodiy foydalangan.

I. 2. "Husn-u Dil" – "Xamsa"ga javoban yozilgan doston

Shunday deyishga yetarli asos bor. Dostonda aytilishicha, shijoatga to'lgan, "muhabbat fasli"da ekanida ulug' xamsanavislar besh xazinasini Nishotiy qalbiga o't solgan. Asarlarini ishtiyoq bilan mutolaa qilgan. So'ngroq, unga zamonasining ulug' pirlaridan bo'lgan, avliyo zot Sharofiddin eshon nazari tushgan. U "umrga sotig'" bo'lgulik ish – asar yozgani targ'ib qilgan. Dostondagi tavsilotlarga asoslanib, Sharafiddin eshon Nishotiyga tasavvuf ilmini o'rgatgan, degan fikrga

⁸ Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1987. 17-b.

kelish mumkin. Nishotiyning birga safarga chiqqan do'sti ham o'tgunchi umrga badal bo'lgunlik ish qilgani targ'ib etgan. Keyin (Nishotiy) do'stim taklifini qabul qilishga qildim-u, ammo nimani, qanday yozishni bilolmay taraddudda qoldim, deydi. Shoirning bu holga tushishiga birinchi sabab salaflarining ulug'ligi bo'lsa, ikkinchi sabab tasavvuf ilmidan bexabarligi – uni mukammal bilmasligi edi.

Dostonda Nishotiyning Navoiyga ixlosi g'oyatda baland bo'lganligi yaqqol sezilib turadi. Navoiy esa "Xamsa"sining har bir dostoni mohiyatiga irfoniy mazmunlarni singdirgan edi. Ustozga munosib shogird bo'lmoq uchun Nishotiydan haqiqat ilmini puxta bilish talab qilinardi. Bizningcha, Sharafiddin eshon mana shu yo'lda Muhammadniyozga yordam bergan:

Sonchilibon jong'a bu so'zdan tikan,
Go'shai vayronani qildi vatan.
Har kun anga podshohi beniyoz,
Qildi ayon turfa nihon ganj roz...
Ahli najobat sari sardaftari,
Xayli saodat boshining afsari...
Burji sharafdin chiqibon ul oftob,
Soldi boshim uzra anvori tob. (37)

Shundan so'ng Nishotiyda ulug' salaflari ishini davom ettirgani jur'at topilgan. Sharofiddin eshon uni shunchaki bir asar emas, barchaga manzur bo'luvchi, "ikki jahon ahliga" matlub bo'luvchi, sur'at eliga ham, ma'no eliga ham maqbul bo'lgan asar yaratishga undaydi va bu yo'lda ilgargi xamsanavislardan o'rganishi, o'rnak olishi lozimligini uqtiradi. Sharofiddin eshon "Xamsa" besh kitob-u, ammo uni bitganlar to'rt ekanini, Nishotiy yozsa, xomis – xamsa yozuvchi ham besh bo'lib, tugal bo'lishini aytib, ilhomlantiradi:

Husn ila Dildin qilibon guftug'o,
Bergil anga toza-u tar rang-u bo'.
Ya'ni majoz ila haqiqat qarin,
O'yla so'zing bo'lg'usidur dilynishin. (39)

Shundan so'ng Nishotiy ulug' maqsadining birinchi dostoni bo'lgan "Husn-u Dil"ni yozishga kirishgan. Asarni o'zidan oldin yashab o'tgan to'rt shoir: Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy "Xamsa"sining ilk dostoniga javob tariqasida bitganini XI bobda shunday bayon qiladi:

To‘rt kitob andaki mazkur erur,
Xamsalig‘ oti bila mashhur erur.
Har birining avvalida bir kitob –
Bor edikim, andin edi fathi bob.
Birining oti: “Maxzani asrori shavq”,
Ul birisi: “Matlai’ anvori shavq”.
Yana biri: “Tuhfat ul-ahror” edi,
Biri aning: “Hayrat ul-abror” edi.
Man dog‘i anlarg‘a demoklik javob
Istabon aytim bu so‘zi irtikob. (40)

Demak, “Husn-u Dil” Nishotiy yozmoqchi bo‘lgan “Xamsa”ning dastlabki dostoni sifatida yaratilgan. Ammo shoirning qolgan to‘rt dostonni ham yozgan – yozmagani hanuzgacha noma’lum. Nima bo‘lganda ham shoirning shunday ulkan ishga qo‘rqmay qo‘l urushi va uning birinchi dostonini salaflarinikiga mutlaqo beo‘xshov, maromiga yetkazib bitganining o‘ziyoq uning qay darajada iste’dod sihibi ekanligiga isbotdir.

Qildim oni nazm qilurga qiyom,
O‘tti mashaqqat bila besh oy tamom. (374)

“Bu fikrlarga ko‘ra Nishotiy ulug‘ ustozlarining “Xamsa”si kabi asar ham yaratgandir, deb taxmin qilish mumkin. Balki yillar, asrlar o‘tishi bilan bizga yetib kelmagandir. Har holda u ham mazmun, ham badiiy jihatdan go‘zal asar yozish san’atini mukammal egallagan, hatto buyuk asar yozish haqida katta san’atkor sifatida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishga ham qodir edi. Ikkinchidan, shoirning shuncha katta va bekam-u ko‘st asarni besh oyda yozishi ham uning badiiy mahorati qanchalik yuksak qudratga ega ekanini ko‘rsatib beradi”.⁹

“Xamsa” yozish an’anasiga muvofiq asarning birinchi dostoni axloqiy-tarbiyaviy, pand-nasihat ruhida bitilishi lozim. Biroq “Husn-u Dil”, Navoiy “Xamsa”sini nazarda tutganda, “Hayrat ul-abror”dan ko‘ra ko‘proq “Farhod va Shirin”ni yodga soladi. Ammo “Husn-u Dil”da ham axloqiy-falsafiy, didaktik ruhdagi fikrlar yetarlicha topiladi. Dostonda Nishotiy “hech kim yurmagan, balki ko‘rmagan-u bilmagan” yo‘lni tutib, ya’ni original asar yaratishni ko‘zlaganini ham alohida ta’kidlagan.

⁹ Rasulov X. O‘zbek epik she’riyatida xalqchilik. -T, 1973. 32-b.

Nishotiy “Husn-u Dil”ni yaratish jarayonida Navoiy “Xamsa” sidan ilhomlangan. Masalan, “Farhod va Shirin”da Shirinning o‘n dugonasi borligi va ularning har biri hunarda mohirligi to‘g‘risida fikrlar bor. Ayni holat “Husn-u Dil”da Husnning o‘n dugonasi borligi haqidagi bayonlarda ijodiy qayta ishlangan :

G‘amza-u Ishva dog‘i On-u Ado,
Sheva, Karashma dog‘i Mehr-u Vafo.
Yana biri Nozi fusunsoz edi,
Birri oti Sarvi sarafroz edi.
O‘n adad edi bu bori mahliqo,
Aysh ichida erdi bular ila “yo”. (250)

Agar Farhod uchun mazhar Shirin bo‘lsa, Fuod uchu mazhar – Husn. Farhod tilsimni ochish – o‘zligini anglash uchun Yunoniston safariga otlanib, qancha mashaqqat chekkan bo‘lsa, Fuod ham obi hayot manzilini toppish – o‘zligini anglash uchun Diydor shahrigacha borib, behisob mashaqqat chekadi. “Farhod va Shirin”dagi dev, ajdar, robot kabi majoziy-ramziy obrazlarning, deyarli, barcha muqobil-ma’nodoshi “Husn-u Dil”da ham uchraydi. Shuningdek, boblar tuzilishi, nasriy parchalarda mazmun mundarijasining sqiq-ixcham ifodalanishi, ifoda usuli va boshqalarda ham ikki doston o‘rtasidagi ko‘pgina mutanosiblik, o‘xshashlikni ko‘rish mumkin.

“Husn-u Dil”dagi “Chang‘, “Daf”, “Nay”, “Nag‘ma” hikoyatlari “Sab‘ai sayyor”dagi musofirlar afsonasini eslatib yuboradi. Navoiy dostonida bo‘lgani kabi Nishotiy dostonida ham Chang, Nay, Daf va Nag‘ma dunyo ko‘rgan musofir sifatida tasvirlanadi hamda shoh huzurida o‘z rivoyatlarini aytadi. Nishotiy ushbu qoliplanuvchi hikoyalarni, avvalo, tarbiyaviy-axloqiy maqsadni ko‘zlab, bu orqali asarning irfoniy mazmuniga xizmat ettirgan. Bu ikki asarni qiyosiy o‘rganish adabiyotshunosligimizga yangi ilmiy-nazariy yutuqlarni olib kirishi mumkin.

Yoki “Husn-u Dil”dagi so‘z haqida, qalam vafida, kabi maxsus boblar “Hayrat ul-abror”ga o‘xshab ketsa, maktublar tasviri “Layli va Majnun”ni yodga soladi. Layli hajrida o‘rtangan Majnun yorining maktubini har gal o‘qiganda qayta jon topgandek bo‘ldi. Layli yuborgan maktublarni ko‘ksida tumordek asrab, undan ruhiy quvvat olardi. Oshiq-mashuq maktublarining xuddi shunday tasviri “Husn-u

Dil”da ham mavjud. “Farhod va Shirin”da ham oshiqona maktublar bayoni bor, ammo Nishotiy dostonidagi nomalar aynan “Layli va Majnun”dagi kabi oʻtli haroratga, kuydiruvchi taftga ega. Dostonlardagi maktublarni alohida olib oʻrganish galdagi vazifalarimizdan.

Muhammadniyoz zamonasining koʻpgina yirik ijodkorlari singari yirik epik asarini anʼanaviy sujet asosida yaratdi. Mazkur sayyor sujetni yangi-yangi kuzatishlari, hayotiy tajriba va isteʼdodi bilan boyitib, ham sujet taraqqiyotiga, ham epik sheʼriyat rivojiga munosib hissa qoʻshdi. Tanlangan sujet shoirga oʻz dardlari, oʻylari, davr va inson haqidagi mulohazalarini, ijtimoiy-siyosiy masalalarga munosabat bildirishi uchun vosita vazifasini bajardi. Bunday anʼanaviy voqealar asosiga qurilgan asarlar faqat til xususiyati bilangina emas, obrazlarining yangicha talqini, badiiyati, davr ruhini qay darajada aks ettirganligi va fikr salmogʻi kabi qator jihatlari bilan farqlanadi. Shunday boʻlsa-da, oʻtmish shoirlari anʼanaviy sujet asosida asar yaratib, kamtarlik yuzasidan uni nasriy asarni namiy asarga aylantirish, deb hisoblaganlar.¹⁰ Garchi sharq adabiyotida koʻcham sujetlar asosida koʻplab asarlar yaratilgan boʻlsa-da, turli davrlarda, oʻzga tillarda yaratilgan bunday asarlarning har biri oʻziga xos, individual xususiyatlarga ega. Chunki har bir ijodkor oʻz qahramonlari sajiyasi, xulqi, xarakterini koʻzda tutgan gʻoyaviy-eststik qarashlari, kezi kelganda, davrning ijtimoiy-siyosiy talablari ruhi bilan yangittan yaratadi. Natijada, anʼanaviy voqelik qayta ishlanib, yangi sifatlar bilan boyiydi.

Bir sujet asosida vujudga kelgan asarlarga baho berganda, muallifning anʼanaviy voqelikka munosabati, unga qoʻshgan yangiliklari, oʻzgartirishlari, ijodiy individualligini hisobga olish lozim boʻladi. Chunki Sharq xalqlari adabiyotida “navotorlik yangi sujet asosida asar yaratishda emas, balki maʼlum sujetni oʻzicha muvaffaqqiyatli oʻzgartirish, oʻzicha iahlab, tuzatib, takomilga yetkazishda, konkretlashtirishda va uning asosida yangi asar yaratishda”¹¹ nomoyon boʻladi. “Husn-u Dil” ham koʻp asrlik taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtdi. Uning arab, fors-tojik,

¹⁰ Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. – T. : Fan, 1987. 18-bet.

¹¹ Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – T. , 1963. 378-bet.

o‘zbek, urdu, turk va yunon tillarida bitilgan variantlari mavjud bo‘lib, ular nasr bilan ham nazm bilan yozilgan va turlicha nomlangan.

Mazkur sujet eng ko‘p fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan hamda qayta-qayta ijodiy ishlangan. Chunonchi, XV asrda shoir Fattohiy (1450-yil vafot etgan) Husn-u Dil afsonasi asosida nasr-u nazm uslubida yangicha doston yozgan. Bu dostonning qo‘lyozmasi Tojikiston FA Til va adabiyot institutining sharqshunoslik bo‘limida saqlanmoqda. Shu fondga saqlanayotgan “Ravzat ul-ushshoq va hikoyati Ibodullohi G‘ofuri Nishopuriy va Riyoz ul-latif” nomli kitobning 89 – 137-betlarida ham tojikcha “Husn-u Dil” dostoni berilgan. Bu doston o‘z sujeti, nasriy ifodasi, vazni va boshqa ko‘pgina jihatlari bilan Fattohiy dostonidan farqlanadi. Yana mashhur tojik adibi Mushfiqiy ham (XV asr) “Gulzori eram” dostonida Husn va Dil haqidagi afsonani qayta ishlagan. Fors-tojik adabiyotida bu sujetda yaratilgan boshqa asarlar ham bor.

O‘zbek adabiyotida mazkur afsona xiyla uzoq tarixga ega. Masalan, XVI asrda o‘tgan oshnozlik shoir Ohiy Husn-u Dil sujetida doston yaratgan. Afsonaning xalq orasida keng tarqalgan variantlaridan biri shoir Nishotiy qalaniga mansubdir. Doston shu sujetga tayanib yaratilgan boshqa asarlardan keskin farq qiladi. Asarning ko‘pgina qo‘lyozma nusxalari Toshkent, Xiva, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda mavjud.¹² Bunday dostonlarning o‘zbek adabiyotidagi eng ko‘zga ko‘rinarli namunasi Nishotiyning “Husn-u Dil”idir. U adabiyotimizda mavjud bo‘lgan epik she’riyat namunalaridan ancha farqalanadi. Bu hol ayniqsa obarzlari tizimida ko‘zga yaqqolroq tashlanadi.

Muallifning yozishicha doston Buxoroda 1778-yilda (*Xatmi Dil va Husndir*, ey nuktadon) yozilgan. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar harfalarining abjad hisobidagi miqdori hijriy 1192, milodiy 1778- yilni keltirib chiqaradi. Lekin doston yozilgan yil manbalarda turlicha ko‘rsatilgan.¹³ Nishotiy ushbu sayyor afsonani asariga asos qilib olishda keng qamrovli mushohadalarni badiiy ifodalashni ko‘zda tutgan. Ijodkor shunchaki xayoliy obrazlarni yaratish emas, balki orifona, irfoniylar ma’noni,

¹² Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. II kitob. – T. : O‘qituvchi, 1964. 193 – 194-betlar.

¹³ O‘zbek adabiyoti. III tom. – t. , 1959. 447-bet.

Rasulev X. Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni haqida// O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – T. ,1962.4-son.

kayxoniy sir-asrorni ramziy obrazlar bilan Husn va Dil afsonasi orqali aytishni maqsad qilgan. Ta’kidlash kerakki, “Husn-u Dil” qanchalik dunyoviy asar bo’lsa, shunchalik tasavvufiy asar hamdir. Undagi timsol va voqealar bir qarashda ham anchagina ma’no anglata oladi. Ammo mazmuniga sinchkovlik bilan nazar tashlansa, asarning ko’pqatlamli ma’nolarga ega ekanligi ayon bo’lad. Bugungacha qilingan doston haqidagi ishlarda ko’proq uning ustqatlam ma’nolari borasida gapiriladi. Masalan, M. Qosimova shoirga bag’ishlangan risolasida shunday yozadi : “...bunday epizodlar orqali Nishotiy real dunyodagi ishq-muhabbat tantanasini ulug’laydi va bu bilan “obi hayot” to’g’risidagi afsonaviy fikrlarni rad etadi; uningcha, dunyoviy go’zallik, vafodor mashuqa obi hayot demakdir ”. Olimaning shu mazmundagi fikrlari dostonning asl mazmuniga ko’pam to’g’ri kelavermaydi. Yoki nishotiyshunoslikda shunday fikrlar ham borki, asar mazmuniga mutlaqo zid. Xususan, adabiyotshunos X. Rasulov 1973 – yil “O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik” nomli tadqiqotida “Aql, ong qatma-qat bilimlar tuzdi, lekin bu bilan o‘z oldida bo‘g‘ovlar, to‘sqinliklar yaratdi. Kimki o‘z himmatiga qo‘l uzatmas ekan, aql tanda go‘yo qafasdagi qushdir, - deyiladi. Shu bob oxirida :

Soqiy, oyog‘ing izidur qiblagoh,
Qo‘yki, boshim ani qilsin sajdagoh, -

deb soqiyga murojat qiladi, toat-ibodatdan may, kayf-safoni ortiq qo‘yadi” qabilidagi fikrlarni bildirganki, bu doston mazmuniga mutlaqo to’g’ri kelmaydi. Shunday bo’lsa-da, mazkur ishlarning yutuqlari ham talaygina va ular nishotiyshunoslikda ilgari tashlangan qadamlardandir.

I.3. Doston kompozitsion qurilishining o‘ziga xos xususiyatlari

“Husn-u Dil” klassik epik poeziyaning masnaviy shaklida, aruzning sa’ri baharida yozilgan bo’lib, 62 bob, 7092 bayt – 14184 misradan iborat. Har bir bob avvalidagi nasriy parchalar Sharq nasri uslubi bo’lgan sajda bitligan. Shoir I – V boblarda olam, inson, tabiat, umr haqidagi fikrlarini badiiy tarzda ifodalagan. Kirish qismida latofatli mahbub suratidagi bo’shon maqtaladi. Arabiy harfalar

orqali go‘zallikni betakror tashbehlarda ifodalaydi va “o‘n to‘qqiz harf bo‘ldi bu aytur chog‘i ”, deydi. Kimki o‘n to‘qqiz harf orqali sanalgan fazilatlarga ega bo‘lsa, o‘n to‘qqiz o‘tdan najot topadi, demoqchi shoir. Bular orqali insonlarni ezgulikka, yaxshilikka da’vat etadi.

II bobda hayot go‘zalligi, ishqning har narsadan ustunligi kuylanadi. III, IV, V boblarda hamd, shuningdek elchilar sarvari payg‘ambarimizga na’t aytiladi. VI bob esa hasbi hol tarzida bitligan. VII bobda asarning yozilish sabablari, VIII bobda esa ahli kalom va so‘z qudrati haqida mulohazalarni bayon qiladi. IX bobni Muhammadniyoz Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar madhiga bag‘ishlagan. Ayni bobda ulug‘ maqsadlari, xususan, “Xamsa” yaratish haqidagi istaklarini bayon etadi. X bobda qalamga murojaat qiladi va uch kishidan : pir , ma’no va so‘fiydan asarining muvaffaqiyatli chiqmog‘iga ko‘mak tilaydi. Bobda, asosan, qalam to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shoirning mazkur mulohazalari Navoiyning “Hayrat ul-abror”dagi “Qalam vasida...” bobini mazmunan takrorlaydi. Bu hol Nishotiyning ustози Navoiyga ergashgani, so‘ngra “Xamsa” yaratishga ahd qilganin dalillaydi. XI bobdan LXII bobgacha asosiy voqealar bayoni berilgan.

Muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini o‘quvchiga yanada tushinarli va yodda qolarli bo‘lishini, voqealar rivojining batafsil yoritilishini istab doston tarkibiga nisbiy mustaqil bo‘lgan to‘rtta hikoyat va beshta munozara kiritgan. Hikoyatlar :

1. “Chang”;
2. “Daf”;
3. “Nay”;
4. “Nag‘ma”.

Munozaralar :

1. “Boz va Bulbul”;
2. “Gul va Daf”;
3. “Nay va Naxl”;
4. “Kosai Chin va Nargis”;
5. “Binafsha va Chang”.

Hikoyatlar va munozaralar alohida tadqiqqa loyiq.

Nishotiy dostonning tarkibiy qismlarini ustamonlik bilan joylashtirgan. Ularda sunniylik sezilmaydi. Har bir bob maxsus boshlanma, voqealar rivoji va tugallanmasiga ega. Shu ma'noda boblar quyidagi besh qismdan tarkib topgan :

- a) peshsoʻz – saj uslubidagi nasriy parcha;
- b) tong tasviri;
- c) voqealar bayoni;
- d) Ollohga murojaat;
- e) soqiyga murojaat.

Bob mazmunini aks ettiruvchi nasriy parchada bayon qilinajak voqealar muhtasargina yoritib beriladi. Nasriy parchalarning deyarli barchasi saj bilan bitilgan, ustoz Navoiy anʼanalarini shoir muvaffaqiyatli davom ettira olgan :

“Oftobi cholok qassobi bebok kibi aflok uyidan hamalni olib soʻyganida va shuoʻi shujoʻanjum gʻanimining begʻam tigʻi sitam bila koʻzin oʻygʻonida Nazari nomvar va Nagʻmai dilovar va Xayoli safdar Aqli falakjohning xabarin Husni anjumsipohga yetkurgani... Tahhiyyot podshohi va daʻvat shohidin soʻngra Aqli sipohdorning lashkari jarrorin va askari xunxorin arz qilgani...” (201)

Nasriy parchalarning doston ichki qurilishidagi vazifasi shuki, peshsoʻz – nasriy boshlanma “kayfiyati” qay holda boʻlsa, voqealar rivoji ana shu yoʻsinda kechadi. Yuqoridagi nasriy parchaning ham “Oftobi cholok qassobi bebok kibi aflok uyidan hamalni olib soʻyganida...” deb boshlanishidanoq tasvirlanajak voqealar urush toʻgʻrisida ekanligini payqash mumkin. Ammo oʻquvchi voqealarning toʻliq sheʼriy bayonini oʻqisagina tugal mazmunni anglashi mumkin.

Bobda peshsoʻzdan soʻng tong tasviri beriladi. Shartli ravishda “bob muqaddimasi” deyish mumkin boʻlgan bu qism kitobxonni boʻlajak voqeaga tayyorlaydi, bobga xos ruhiy-psixologik muvozanatni hosil qiladi. Tong tasviri, asosa, ikki-uch baytli, baʼzan ancha batafsil. Biroq shu ikki-uch baytli tasvir ham oʻquvchida maʼlum hissiy hol uygʻota oladi.

Shohi falak zohir etib dor-u gir,
Ayladi ul zangiyi tunni asir.
Qon oqizib oʻylaki gulgun shafaq,
Berdi jahon mulkiga oʻzga nasaq. (209)

Ushbu tong tasviri bo'lajak voqealar shiddatidan, chunonchi, uning urush haqida ekanligidan kitobxonni ogohlantiradi, bo'lajak voqealarga tayyorlaydi va qiziqtiradi:

Qo'ydi sahar boshiga zarrin kuloh,
Taxti falak bo'ldi anga jilvagoh.
Adl ila dod etdi oningdek ayon,
Bo'ldi jahon gulshani bog'i jahon.
Olam ahli bo'ldi farog'at bila,
Gulshani ishrati aro rohat bila...(243)

Bunday tong tasvirlari esa bobdagi voqealar tinchlik, adolat, rohat-u farog'at kabilar bayoniga bag'ishlanganidan dalolat beradi. Doston boshidan so'nggiga qadar davom etgan ushbu yo'si o'quvchini asarga jalb etish hamda mazmunni tushunishni osonlashtirish, o'quvchi fikrlarini nazorat qilish, estetik ideallarini ifodalash yo'lidagi yaxshi bir usul. Nishotiy bundan butun asar davomida o'rinli foydalana olgan.

Voqealar rivojida esa muallif o'zining ko'zda tutgan asosiy mulohazalarini bayon etadi. Ularni atroflicha tasvirlashga harakat qilib, go'zal badiiy libos kiydiradi. Boblarning ushbu qismi ba'zan ancha batafsil, keng tasvirlangan, ba'zan ikki-uch sahifali. Bob ifodalashi lozim bo'lgan asosiy mazmun ayni mana shu qismda bayon qilinadi.

Ollohga murojaatlarda lirik qahramonning – “epik men”ning butun sajiyasi, asl muddaosi oshkora sezilib turadi. Unda epik men orzu-armonlarini, dard-u hasratlarini to'kib soladi. Har bob so'ngidagi Ollohga murojaatlarni ayni bobning kulminatsiyasi, tuyg'ular g'oyatda ko'tarinki kuylangan o'rni deyish mumkin. Bu qism ham butun asar mazmuniga, ham bob mazmuniga doir muallifning xulosa so'zlarini aks ettirishi bilan diqqatga molik.

Yo rab, etib ishq ila holim harob,
Shavq ila sol jonima yuz iztirob.
Ishqing aro jonim etib andalib,
Shavq guli bo'yidin etgil nasib. (58)

Dostondagi xulosasimon bu baytlar qat'iy tartibda : har doim ikki bayt ko'rinishida bitilgan. Mazkur baytlar dostonning tasavvufiy-irfoniy mazmunda ekanini ro'y-rost ko'rsatib turadi.

Soqiyga murojaatlar ham Ollohga murojlat qismining uzviy davomi, bunda shoir ma'naviy yo'l boshchisi bo'lgan soqiydan ko'mak so'raydi. Uning berajak mayiga muhtojligini, ya'ni Haq ishqiga tashnaligini har bob so'ngida bot-bot uqtiardi.

Soqiy, olib kel manga jomi hayot,
To topayin ishqing o'tiga sabot.
O'yla samandar tutib andin makon,
Aylayin ul shu'la aro oshiyon. (58)

Boblarning bu qismlarida orifona ruh ustunlik qiladi. Ular doimo "soqiy" so'zi bilan boshlanib, ikki baytdan tashkil topadi. Soqiyga murojaatlar bob xulosasidek o'qilishi bilan Ollohga murojaatlarga o'xshab ketadi, ammo keying bobga ishora qilishi bilan ulardan farqlanadi.

Shartli ravishda, har bir bob nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan asar. Dostonni inson umriga qiyoslasak, har bir bob – umrning bir kuni, chunki boblar ham quyosh chiqishi bilan boshlanib, ma'lum harakat yakunlangunga qadar davom etadi va tugallanmalarga ega. Axir, inson ham umr atalmish muddatning har kunini bir-biriga beo'xshov qilib o'tkazadi. Ularning har biri o'zicha mustaqil. Biroq bu kunlarda yashovchi odam bittaligidan ular yaxlitlanadi, umumiylik kasb etadi va yagona insonning umri maqomini oladi. Biz har biri nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan bir asar deb atayotganimiz doston boblari umumiy maqsad ostida birlashib, bir butunlik kasb etib yaxlit asar nomini olgan.

Lirik chekinishlar muallif biografiyasiga oid ayrim xulosalarni berishi bilan qimmatli. Lirik chekinishlar har bobda va muqim bir o'rinda emas, ko'proq asarning eng hayajonli, ehtirolarga to'la o'rinlarida, xususan, qahramonlar behad qiynoqlar komida qolganida keltiriladi. Bundan shoirning shaxsiy hayoti haqida ma'lum tasavvurlar hosil qilish mumkin. Masalan, Nazarning Sagsor diyorida g'oyatda og'ir iztiroblarga giriftor bo'lgani haqida gapira turib, deydi :

Ketmokidan topmadi o'zga, biroq

Erdi anga yer qatig‘-u ko‘k yiroq.
Chekti Nishotiy kibi bir o‘tlug‘ oh,
Dudi bila dahrni qildi siyoh. (112)

Ularni umumlashtirib muallifning tarjimayi holi bilan bog‘liq doston qismlari deyish mumkin.

“Husn-u Dil” dostonining kompozitsion tuzilishidagi yana bir o‘ziga xoslik shundaki, voqealar rivojidan beshta munozara ham o‘rin olgan. Munozaralar asar mazmuniga begona bo‘lmay, aksincha asarni to‘ldiruvchi, yanada tushinarli qiluvchi, shuningdek, dostonning didaktik jihatini boyituvchi vositadir. Munozaralar tahliliga kirishishdan oldin Chang, Daf, Nay, Nag‘ma hikoyatlari haqida to‘xtalib o‘tgan ma’qul. Asarda aytilishisha, Aqlshoh vaziri Vahmi baloning Fuod do‘stlari haqida aytgan so‘zlari rostligini bilish uchun Vahmdan isbot talab qiladi. Shunda Vahmi balo shohona bazm tuzib, shohga ularni bir-bir ko‘rsata boshlaydi. Aqlning ko‘zi dastlab “Jon-u jigari dog‘lig‘ bo‘yni va ayog‘i bog‘lig‘, tig‘i javr bila bag‘ri so‘kilgan va qahri dahr bila beli bukilgan oshuftahol va zirolatmisol bir piri foniy” ga ko‘zi tushadi hamda undan nasl-nasabini so‘raydi. Keksa Chang alamli o‘tmishini, bir paytlar go‘zal daraxt bo‘lganini shirin-shirin mevalar tugganini, soyasida odamlar rohat qilganini, hammasining unga muhtojligini ko‘rib, bundan kibrga berilganini va alal-oqibat mag‘rurligi boshiga yetib, tabar – bolta bilan chopilib xor bo‘lgani haqida so‘zlab beradi.

Dedi nabiy : “Kibr-u hasad shum erur,
Kimki qilur el aro mag‘mum erur”.
Bilmadim oni mani gumrohvash –
Bo‘lmadim o‘z holima ogohvash...
Bog‘i jahon oxiri asmor – mor,
Bor ekan gulzor oxiri – zor...
Oxiri umr o‘ldi raqam mim aro,
Marggadur ul ikkovi peshvo...
Umr ikki xissasi mo‘rdin nishon –
Bo‘lsa, ne deb bo‘lmag‘uvsi talx jon ?!

Hikoyatdagi Chang allegorik obraz, ya’ni musiqa asbobi chang bazmda kuy chalyapti, xolos. Ushbu musiqa asbobining mungli kuy taratishini va ko‘rinishi egik bo‘lishini bilamiz. Nishotiyning mahorati hayotiy mantiqdan kelib chiqib

bazmda kekkayib, o'ziga ortiqcha ishonib o'tirgan Aqlshohga chang tilidan nasihat qiladi. Changga umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda so'z so'zlatadi. Haqiqatda changing qaddi egik, kuyi mungli bo'ladi. Tashqi ko'rinishining ko'pni ko'rgan nuroniyga o'xshatilishiga hayotiy asos bor. Bular masalaning bir tomoni. Xo'sh, asarning umumiy maqsadiga mazkur hikoyatlar qay darajada dahldor ? Yoki hikoyatlar nega asarning shu o'rniga kiritilgan ? Bunga quyidagicha javob berish mumkin : dostonning bu o'rinlarida Aqlshohning Vahmi balo so'ziga kirib hovliqayotgani, o'ziga ortiqcha ishonib, kibrga berilgani tasvirlanayotgan edi. Changni dunyo ko'rgan nuroniyga, kuyini alamli afsonaga mengzab kiritilishidan maqsad, kibr, mag'rurlik, manmanlik insonga yaxshilik olib kelmasligini uqtirish edi. Va bu o'z navbatida Aqlda shunday xususiyatlar borligiga ham ishora. Qisqasi, shoir insoniy aql bilan hamma muammoni hal etib bo'lmaydi, ba'zan insoniy aql vahimaga tushib shoshib qolishi mumkin, natijada xatkor bo'lib, asl maqsaddan chalg'ib qolinadi, demoqchi bo'ladi.

Daf haqidagi hikoyat ham mazmuniag ko'ra yuqoridagi hikoyatni takrorlasada, ifoda yo'sini va ta'sir kuchi bilan undan farqlanadi. U ham shohga mag'rurligi, dimog'dorligi boshiga yetib, doimo olovda kuyib, dunyo elidan kaltak yeyuvchi bo'lganini so'zlab beradi. G'aflatning, bekorchi ishlarga berilishning oqibatlarini aytib navozish qiladi :

Oxiri g'aflatki erur lom-u to,
Lat bila ya'ni meni so'ydi qazo. (169)

Aslida, ushbu allegorik obraz bazmda chalinayotgan childirma. Nishotiy doiraning tashqi ko'rinishidan tortib, ovozigacha badiiy tus – ma'no berib, umumiy maqsadga qaratilgan fikrlarni ifodalaydi, tabiiy holatdan o'ziga xos badiiy mantiq yaratib, muayyan obraz xislatlarini qoralash orqali insonlarda bunday xususiyatlar bo'lmasligini uqtiradi.

Nay va Nag'ma hikoyati ham yuqoridagi ikki hikoyatga mazmunan yaqin. Ularning barchasi kibr, g'aflat, manmanlik insonga xos xususiyat emasligini ta'kidlashga qaratilgan. Bir bob tarkibida kelgan to'rt hikoyatni ham ta'limiy-axloqiy, tarbiyaviy-didaktik, ham majoziy-hayotiy, falsafiy-tasavvufiy mazmunda

o'rganish, talqin qilish mumkin. Bulardan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanishda yaxshi samara berad. Qizig'i, hikoyatlar borasida bugunga qadar adabiyotshunosligimizda biron-bir fikr bildirilgan emas. Ammo mazkur asarlar doston umumiy tuzilishida muhim o'rin egallaydi.

Munozaralarga kelganda esa, biroz manzara o'zgaradi: ular ham asarning ajralmas qismidir. Dastlabki munozara "Boz va bulbul" bo'lib, u aqlshohning qo'shin to'plab Ishqshohga qarshi yurayotgan mahalida keltiriladi. Bulbul shirinsuxanligini, "savt-u navo"dan xabardorligini aytib, Boz (lochin)da u fazilatlar yo'qligini, uning jahlasar, badmaqol ekanligini tanqid qiladi:

Bozga Bulbul dedi: ey jahlasar,
Sanda qani savt-u navodin xabar?
Qushlar aro san kibi bir badmaqol,
Mumkin emas bo'lmagi, ey badjamol!
Manman o'shul bulbuli go'yoxvash,
Nag'man erur el aro davudvash. (198-b)

Bulbul so'zlaridan ikkita xulosa chiqadi: shirinsuxanlikning yaxshiligi va manmanlikning yomonligi: Unga javoban:

Boz dedi angakim:-Xomush bo'l,
Bo'lma til izzat tilasang, go'sh bo'l...
Bir ishi san aylamayin vaqti kor-
Lof ila so'z chog'ida dersan hazor...
Manzili maqsad tilasang soda bo'l,
Joda kibi sar-basar aftoda bo'l!
Istar esang yor yuziga nazar,
Ko'rma o'zung o'ylaki nuri basar! (198-99)

Parchalardan munozaraning nega aynan shu yerda va anima maqsadda keltirilgani ochug'-oydin bilinib turibdi. Demak, inson biror ishni qilishdan oldin yetti o'lchab, bir kesishi lozimligi, shoshmashosharlik emas, bosiqlik bilan yo'l tutishi, ishni bajarib so'ng maqtanish joizligi masalda o'z ifodasini topgan.

Ushbu munozara tasavvufiy ma'noda insoniy aqlda ortiqcha g'ururga berilish, manmanlik, ba'zan shoshmashosharlik bilan xulosa yasab, insonni adashtirib qo'yish odati borligini, shu boiz Haq jamolini idrok etish uchun aql o'jizlik qilishi, buning uchun irfoniylar ma'rifat lozimligini anglatadi.

Keyingi munozaralar doston soʻngrogʻida, pariruxsor Husn kanizlari birma-bir Fuodni mehmon qilishi voqealarida keltiriladi. Sirtidan qaraganda, bazm boʻlyapti, kuy-navo yangrayapti, bazm-u aysh avj olyapti. Dostonning ushbu oʻrinlarini shoir odatiy sheʼriy bayonda berishi ham mumkin edi. Ammo u bunday yoʻl tutmaydi, bazm ishtirokchilari holatini munozaralashtirib, ajoyib badiiy mantiq yaratadi va dostonning oʻqishli boʻlishini taʼminlaydi.

“Daf va Gul” masalida Daf (childirma) oʻzining ishq eliga, shavq eliga hamroh, poʻstining “ohui chin”dan ekanini aytib maqtanadi va Gulga “oyogʻing qaro tuproqda boʻla turib buncha nozlanmasang, men turganda bu bazmda unga nima bor, yana el-u xalq boshiga chiqib olganing nimasi”, deb malomat qilsa, Gul Dafga har qachon gado qoʻlidasan, zar tilab, darbadar kezasan:

Soʻzing oʻzingdek barisi xom,
Oʻtga tutorlar sani ondin davom,-

deb javob beradi. Yuzining qizilligi qon emas, balki gʻoza-ol ekanligini, xush boʻyi odamlarni oʻziga rom etishini aytib, oʻzini maqtaydi.

“Nay va Shamshod” munozarasi Qomat uyishtirgan mehmondorchilikda keltirilgan. Shamshodning viqor bilan turishini koʻrgan Nay unga: sen havoyi, xudbin va magʻursan, oyoqlaring loyda boʻla turib, dimogʻin koʻkka koʻtarilgan, bahorda yanada tumshugʻing koʻtarib, hech kimni koʻzga ilmayсан, ammo bilib qoʻyki, xazon yeli bir kun seni xarob qiladi deb, oʻzini maqtaydi. Shamshod ham Nayning taʼna-dashnomlariga munosib javob qaytarib, uni ikki boshli ilonga oʻxshatadi:

Bedil-u bediydasan-u bezabon,
Besar-u beposan-u bejism-u jon.
Boshingga magʻz-u koʻzingga nur yoʻq,
Oʻn koʻz ila koʻr desam dur yoʻq. (351)

Soʻng shoh-u gado oʻzidan bahra olishin aytib, maqtanadi. Masalda dimogʻdorlik, mensimaslik va bekorchi soʻzlash kabi yot xislatlar qoralanadi.

“Kosai Chin va Nargis” masalida oʻz rutbasini oʻzi bilmaslik, ochkoʻzlik, tamagirlik, nafsga hushyorlik kabilar haqida soʻz boradi.

Gisu uyushtirgan mehmondorchilikda “Chang va Binafsha” munozarasi keltiriladi. Chang o‘zini mushtipardek ko‘rsatib o‘tirgan Binafshani shunday tanqid qiladi:

Fikr sango qaro, libosing qaro,
Xona sango tor-u palosing qaro,
To‘la dimog‘in aro Namrud o‘ti,-
Etti qaro orazing ul dud o‘ti,
Ko‘r maniki foyiqi ofoqman,
Sarvari sardaftari ushshoqman. (360)

Binafsha ham otasholud so‘zlar bilan javob berib, uni “lof-u kazzof” so‘zlashda ayiblaydi:

Pir vale ko‘nglingga tadbir yo‘x,
Shayx vale ko‘nglingga tazvir yo‘x...
Ko‘ngling erur to‘la avoyiq bila,
Javfi dimog‘i ham aloyiq bila.
Ishq so‘zi birla ko‘p etma g‘uluv,
Loyiq emastur sango bu guftugo‘. (361)

So‘ng o‘zi haqida gapirib, fazilatlarini sanaydi va nima uchun qaro libos kiyganligini izohlab beradi:

Bildim oni dahr vafosiz emish,
Umr degan asru baqosiz omish.
Oning uchun bo‘ldi libosim qaro,
O‘ldim-u ham tuttim o‘zimga azo.
O‘lmasidin kimki burunroq qatl,
Bo‘ldi, topar o‘lmasi sari sabil.
Ushbu o‘lumdurki muobbad hayot,
Derlar oni yo‘qturur onga mamot. (361)

Ushbu besh munozara va hikoyatlarsiz dostonni to‘laqonli asar sifatida tasavvur etib bo‘lmaydi. Hikoyat va munozaralarning har biri orifona-so‘fiyona mazmunga ega. E’tibor berilsa, “Boz va Bulbul”dan boshqa to‘rt munozara to‘y kunlarida bo‘lib o‘tadi. Ularning birinchisini Mehr, ikkinchisini Qomat, uchinchisini Noz, so‘nggisini Gisu uyushtiradi. Munozaralardagi bu tartib muayyan mantiqqa ega. Ya’ni vusul hosil qilgan oshiq yori bilan birlik-vahdat hosil qilish jarayonida uning sirlaridan avval mehridan, so‘ng go‘zla qomatidan

(sifatlar ma'nosida), so'ng sochlaridan bahramandlik topib boryapti. Oshiq va ma'shuq birlashuvining eng oxirgi nuqtasi majozan yor lablarida sodir bo'ladi. Va bu solikning nazaran Haq ma'rifatini anglash uchun qilgan sayr-u sayohatining intihosi hisoblanadi. Nishotiy tasvirlagan obi hayot –bu yor lablari. Muallif obi hayotacha bo'lgan voqealarni ko'rib o'tganimizdek, izchillikda joylaganki, odamning aqli shoshadi. Bularning barchasi masallarning irfoniy mazmuni.

“Husn-u Dil”dagi munozaralardan ikki tomonlama xulosa chiqarish mumkin. Ya'ni ularda maqtalgan sifat ham, qoralangan illat ham didaktik ahamiyat kasb etadi. Nishotiy munozaranavis sifatida o'rganishgan-u, ammo munozaralarining haligacha to'kis va to'g'ri tahlili amalga oshirilgan emas.

Xulosa qilib aytganda, Muhammadniyoz Nishotiy Sharqda an'ana bo'lgan Husn va Dil haqidagi afsonani dostonida qayta ishlab, unga ijodiy sayqal berdi. Buni o'zi aytganidek, Dilning nomini Fuod qilib o'zgartirganidan ham bilish mumkin. Shoir dostonini butunlay tasavvufiy mazmunda bitgan. Nishotiyning “Husn-u Dil”ini an'anviy sujetda yaratilgan orginal asar, deyish mumkin. Nishotiy “Xamsa” yozganmi, yo'qmi – bu bizga noma'lum, biroq “Husn-u Dil”ni xamsanavislar Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar “Xamsasi”ilk dostoniga javob tariqasida bitilgani aniq. Nishotiyning qolgan dostonlarga javob yozgan-yozmagani haqida dostonida uning o'zi hech narsa degan emas. Balki yillar o'tib topilib qolar. Ammo Nishotiyning salaflari yoniga xomis – beshinchi bo'lib qo'shilishga ahd qilishining o'ziyoq iste'dodidan, shoirlik mahoratidan, iqtidori-yu salohiyatida darak beradi. Chunki “Xamsa” yozishdek ulkan ishga, ulug'lar panjasiga panja urishga jur'at etish har qanday shoirning ham qo'lidan kela bormaydi. “Husn-u Dil” xamsanavislikning barcha talablariag javob beradi. Shuning uchun “Husn-u Dil” dostonini Nishotiy “Xamsa”sining ilk dostoni , deb atadik. Asarning kompozitsion tuzilishi ham e'tiborli. Har bir bob sajda bitilgan nasriy parchaga, she'riy muqaddima o'rnidagi tong tasvirlariga, voqealarning batafsil bayoniga, tugallanma o'rnidagi Ollohga iltijo va soqiyga murojaat qismlariga bo'linadi. Shuningdek, dostondan “Chang”, “Daf”, “Nay”, “Nag'ma” kabi hikoyatlar hamda “Boz va Bulbul”, “Daf va Gul”, “Nay va Naxl”, “Kosayi

Chin va Nargis”, “Binafsha va Chang” singari munozaralar o‘rin olganki, ular asar tuzilishini murakkablashtirsa-da, fikr tushinilishini osonlashtiradi. Nasriy parcha, nazmiy muqaddima, she’riy tugallanma hamda hikoyat va munozaralar kabi fikor ifodalash shakllarini bir maqsadga izchil biriktira olish – ijodkordan ulkan mahorat talab qiladi. Muahmmadniyoz Nishotiy “Husn-u Dil”da shunday mushkul ishni mahorat bilan udda qila olgan.

II.1. Mohiyat, timsol va ramz

Har qanday badiiya asarning qimmatini, avvalo, mazmuniga qarab belgilanadi. Ma’no hal qiluvchi kuchga ega bo‘lsa-da, quruq g‘oyaning o‘zi biror-bir asarni o‘quvchiga maqbul qila olmaydi. Ko‘zda tutilgan mazmun timsolli qilib ifodalansagina, ta’sir kuchi ortadi, yuqumli bo‘ladi. Asar badiiyligini belgilovchi eng muhim narsalardan bir – timsol. Badiiy fikrlash – timsolli fikrlash. Barcha zamonlarda o‘qiladiga chinakam badiiyat namunalarini yaratish ijodkordan katta iste’dod va ijodiy mehnat talab qiladi. Mazkur talablarga javob bermagan asarlar vaqt atalmish beshavqat hukmfarmo tuyoqlari ostida yanchilib, unitishga hukm qilinadi.

Mavlomo Muhammadniyoz Nishotiy adabiyot xazinasidan hech kimnikiga o‘xshamagan, betakror timsollar topa olgan, chinakam badiiy asar yaratgan siymolardan. Shoir ijodkor uchun eng zarur bo‘lgan makon va zamon sinovlariga bardoshli, baquvvat g‘oyalarni asarlarida ifodalay olgan. Shundan ular yashovchan, o‘qishli.

Dastlabki boblarda ko‘proq asar haqida, uning tuzilishi haqida to‘xtalgan edik. Endi mazmun va uning ifodasiga e’tibor qaratsak. Hozirgacha adabiyotshunosligimizda doston mazmunini to‘g‘ri va to‘liq aks ettiruvchi tadqiqot yo‘q.* Nishotiy hayoti va ijodi borasidagi tahliliy ishlarning barchasida asl

mazmundan ko‘ra ko‘proq zohiriy ma’nolari haqida so‘zlangan.¹⁴ Shunday bo‘lsa-da, ushbu tadqiqotlar qilinajak ilmiy ishlarga asos va qimmatli manbadir.

“Husn-u Dil” chuqur falsafiy qarashlarni aks ettiruvchi, inson ruhiyatini, hayoti mazmunini nozik tadqiq etuvchi dostonidir. Uni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda, nazarimizda, noziktab’ shoir ko‘zlagan asl maqsad hali ochilgan emas. Darhaqiqat, Fuod nega boshqa tengqurlariga o‘xshamaydi, tug‘ilganidan boshlab ilmga, hunarga tashna ? Obi hayot, uni qidirib Diydor shahriga safar, sayohat mobaynidagi tilsimotlar, dev, maxluqlar, zangilar, har bir borgan shaharlar, u yerda istiqomat qiluvchilar kimlar ? Nima uchun Nishotiy asar voqealarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri Fuodning Husnni ko‘rishidan boshlamagan, asarning teng yarmi afsonaviy-fantastik sarguzashtlar haqida bitilgan ? Bu va bunga o‘xshash savollarga mavjud tadqiqotlarda javob yo‘q. Holbuki, Nishotiy ertaknamo, shunchaki ermak uchun asar yozadigan shoir emas. “Husn-u Dil”dagi obrazlarning barchasi muayyan umumfalsafiy, irfoniy-ma’rifiy mohiyat ifodalashga qaratilgan. Buni asarning kirish bobida ijodkor piri tilidan aytilgan so‘zlar ham tasdiqlaydi :

Husn ila Dildan qilib guftugo‘,
Bergin anga toza-u tar rang-u bo‘.
Ya’ni majoz ila haqiqat qarin,
O‘yla so‘zing bo‘lgisudur dilnishin.
Ahli haqiqat topib andin navo,
Hayli majoz ani ko‘rib xushnavo.

Ya’ni, maqsad – ishq dardini kuylash. Biroq bu oddiy, zaminiiy ishq emas, ilohiy ishq. Fuod esa ilohiy ishqqa muftalo oshiq. Biz mazkur tadqiqotimizda mana shu nuqtayi nazarga tayandik.

Qadim zamonda Burmon shahrida Aql degan ulug‘ hukmdor bo‘lib, u farzandsizligidan behad oh chekardi. Farzand ko‘rishning har qancha tadorigin

*Izoh: mustaqillik yillarida eng to‘g‘ri talqin bo‘lgan asarning tasavvufiy mazmuni haqida ba’zi qarashlar bor. Masalan, I. Adizova “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida “Husn-u Dil”ning tasavvufiy mazmundagi asar ekanligini ta’kidlaydi.

¹⁴Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy. – Samarqand, 1960.

Abdullayev v. O‘zbek adabiyoti tarixi.Ikkinchi kitob. – T. : O‘qituvchi, 1964.

Rasulev X. O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik. – T, 1973.

Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. – T. : Fan, 1975.

Abduvohidova M. Nishotiyning “Shohboz va Bulbul” munozarasi.// Adabiy me’ros. – T.,1976. 3-son.

O‘zbek adabiyoti.III tom. – T., 1959. 444 – 487-betlar.

koʻrmasin, ilojin topolmasdi. Yillar oʻtib, “tangrining inoyati bilan” suyuqli yori
Nafsbonudan bir oʻgʻil koʻribdi.

Ziynati piroyayi shohiy edi,
Lijjai anvori ilohiy edi.

Demak, Fuodda A. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodda boʻlgani
kabi ilohiy nurlar jamuljam. Tugʻilganidanoq bu uning yuzidan, butun savlatidan
barq urib turadi. Soʻng Fuod “yetti qiroatni yetti yoshida” yod olib, “har na ilohi-
yu riyoziy” boʻlsa, uni toʻla oʻzlashtirib, “gulshani maʼno aro goʻzal sarvdek”
boʻldi. Ilmda mahorat kasb etdi, barcha mushkullar qarshisida hal edi.

Jabhasida savlati shohiy ayon,
Tabʼida asrori ilohiy ayon.

Fuod zohiran, avom xalq nigohida shohdek, biroq botinida ilohiy sirlar nihon.
U iloh ishqiga tashna. Bu dardga biror qizni koʻrib muftalo boʻlmadi, unga bu
hukmi azaldan! Xullas, Fuod ilm-u hunar oʻrganib, barkamol yigit boʻlib yetishdi.
Otasi Aql nuri diydasiqa tilsimlar majmuasi boʻlgan ulugʻ bino – Badan qalʼasini,
onasi esa ishq majoz yoʻsinidagi Iskandarning obi hayot qidirishi haqida bitilgan
Doniyolning asarini hadya etadi. Kitobda obi hayot haqida “kimki uning qatrasidan
ichsa, oʻlgan boʻlsa, toza jon topadi, u buloqning suvi jon suvidek pok boʻlib, ajal
zahrini daf qilgani taryok - davo”, deb yozilgan edi. Bu soʻzlar Fuod botinidagi
pinhoni sirlarini alangalatib yuboradi va hushi uchib, “koʻngli aro ishq oʻti chekti
xurush”:

Ikki qanot anga yoʻq-u par dogʻi,
Toshda oʻt-u ichida axgar dogʻi.

Shahzodaning ahvolini koʻrib barchaning oromi iztirob boʻldi. Uning dardiga
turli davolar, choralar koʻrishdi. Pariyxonga ham, gʻaroyimxonga ham, tib ahliga
ham koʻrsatishdi, biroq biror kishi dardini anglay olmadi, Nega ? Chunki pariyxon-
u duoxon, tabiblarning muolajalari, dunyoviy, mahdud aqlari ilohiy ishqqa chora
boʻlolmaydi.

Bilmadi bir kimsaki bu mojaru,
Ermas avoriz, erur oʻzga balo.

Ta'kidlanayotgan o'zga balo bu – ishq! Fuod ishqqa mubtalo dardmand. Endi u o'zi mushtoq manzilga yetmaguncha halovat topmaydi. Endi maqsadiga qadar yo'l bosib, sabot bilan talabiga yetishishi kerak. Fuod kitobni qo'lidan qo'ymaydi, biroq unda chashmaning makoni aniq ko'rsatilmagan, faqat unga ishoralar bor, xolos. Unga ko'ra obi hayot – qaynab chiquvchi chashma zulmat aro. Bu zulmat qandaydir qorong'ulik, mavhumlik bo'lmay, tasavvufiy ma'noda, oshiq chekishi kerak bo'lgan qaro qayg'u, mashaqqatli mehnat, degani. Kimda ana shunday zulmatga bardosh bo'lsa, u obi hayotga erishadi. Shahzoda bu ramzdan ogoh bo'lgach, dard-u g'amning ham voqifi bo'lib qoldi. Nishotiy mazkur bobning Oллоhga munoajat qismida shunday deydi :

Yo rab, etib ishq ila holim xarob,
Shavq ila sol jonima yuz izzitrob.
Ishqingaro jonim etib andalib,
Shavq guli bo'yidin etgil nasib.

Bu satrlar Fuod botinida kechayotgan ruhiy kechinmalarni ancha tiniq aks ettiradi. U endi qaro qayg'uga sabot qilgani taslim, balki unga mushtoq. Shahzodasi ahvolidagi boxabar Nazar huzuriga kiradi va dil rozini tinglab, yordam bergani ahd qiladi. Obraz maqomida tasvirlanayotgan Nazar – inson nazari, ruhi, hissining badiiy ifodasidir. Bundan buyog'iga Fuod nazaran sayr-u sayohat qilib, manan to'lishib, dunyo qaydlaridan qutilib, poklanadi, o'zini nafsoniy istaklaridan xalos qilib borish barobarida ma'rifat manzillarini bosib otadi.

Nazar shahzodaga orzusini ushaltirmoqqa so'z berib, yo'lga o'tlanadi. U dastlab Ofiyat mamlakatidagi salomatlik shahriga boradi. U yerda Nomusshoh bilan uchrashadi. Shohdan obi hayot haqida so'raganda shoh hikoyati tamsiliy aytib, obi hayot haqidagi gaplar rivoyat, aslida kinoyat ekanligini aytadi :

Balki erur elga bu so'z din murod,
Obi hayo-u adab, ey xushnihod.
Obi hayo yozdi chu ahli qalam,
Sahv ila "to" oxiriga bo'ldi zam. (66)

Agar kishi hayo no'shidan boqiylik suvini ichsa, unga foniylik yetishmaydi, elning obi hayo haqidagi so'zlari, asli, obi hayo to'g'risidadir. Kimki hayoli bo'lsa,

matlabi unga ro‘baro‘ bo‘ladi. Nazar bu so‘zlardan tasalliy topmagach, suv tilab o‘tga hamnishin holda yo‘lida davom etadi.

Demak, haqiqiy oshiq ofiyatni – hayoli, odobli, o‘zini malomatlardan salomat tutishni odat qilmaydi. Aksincha, yori uchun yalinib-yolvorishga, tuproq bo‘lishga-da tayyor bo‘ladi. Haq yo‘liga kirgan solik, avvalo, nomus-u orni tark etishi, o‘zini taslim qilishi, yoridan kelajak barcha sinovlarga bo‘yin sunmog‘i lozim :

Tark etibon or ila nomusini,
Istagay ishq eli zamin bo‘sini.

Nomus huzuridan chiqqan Nazar yo‘l yurib bir diyori orastaga – Shuhrat shahri podshosi Faxr dargohiga boradi. Undan ham obi hayot haqida so‘raydi. Faxr “sen so‘rayotgan narsa siym-u zardur, qalam ahli “mol-u joh” yozaman deb, “movu choh” (suv-u buloq) yozib qo‘yishgan, yozuvchilar “mol” so‘zidagi “lom”ni tushirib xatoga yo‘l qo‘ygan, shu sabab odamlar boylik ma’nosidagi “mol” so‘zini “mo”, ya’ni suv deb o‘qishadi. Kimdaki zar yo‘q bo‘lsa, uning joni ham yo‘q, agar kishida siym-u zar bo‘lsa, barcha maqsadlari ushaladi”, deb nasihat qiladi. Nazar uning ham so‘zlarini bekor bilib, tashna dil-u hasta jon bilan yana talab vodiysiga qadam qo‘ydi.

Demak, haqiqiy oshiq maqsadi yodida butun dunyoviy lazzeatlarni unitishi kerak. Na mol-u joh, na shuhrat, na faxr, na siym-u zar zarracha qiziqitirmasligi lozim. Bularga bo‘lagan har qanday intilishlardan solik ko‘nglini supirib tozalamog‘i, pok tutmog‘i kerak. Boylik, mansab havasi dunyoga bandilik belgisi ham suratga bandi, mohiyatdan bexabar avom xalqqa xos bo‘lgan xislatlardir.

So‘ng Nazarning yo‘li purshukuh bir tog‘dagi savmaa – xristianlar ibodatxonasiga tushadi. Purviqor tog‘ ustiga amallab, tirmashib chiqqach, nihoyatda muhtasham ibodatxonani ko‘radi va uning ichida shayx Zarqni uchratadi. Savmaa tarxi Nazarni nihoyatda hayratga soladi, ammo “bo‘riyosi”dan “bo‘yi riyo” anqib turardi. Zarqning shom-u sahar peshasi bid’at – noma’qulchilik bo‘lsa-da, tilidan sunnat tushmaydi. Umrini go‘shanishin bo‘lib ibodatxonada o‘tkazgan o‘zi g‘ul-u shaytonlarga rahbar, na ilmi, na amali bor. Nazar Zarqdan ham obi hayot haqida so‘raydi. Shayx “ko‘zlaring obi hayot chashmasidir, ikki ko‘zing uchgani ikki qanot, ahli qalam “chashm” so‘zini yozgan mahal xatoga yo‘l

qo'yib, bu so'z oxiriga "a" qo'shib yozib yuborgan, nodon bo'lmasang "sahv - xato" so'ziga boq, unda ham "a" harfi bor, chashmayi hayvon kinoyat bo'lib, u nadomat ashkidir, bilgil, ashki riyo – bu kimyo, chunki kishi ko'z yoshi orqasidan mol-u joh topadi", deb javob beradi. Nazar shayxning oldidan sangdil holda chiqib ketadi.

Ya'ni, oshiq riyo – ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'lmog'i, o'zidagi riyo bilan bog'liq qusurlardan qutilmog'i shart. "Zarq" so'zining ma'nosi ham hiyla, nayrang degani. So'zi boshqa, amali boshqa, yanayam aniqrog'i, faqat suratga bandi, ma'nidan xabarsiz kishi hech qachon ulug' maqsadga yeta olmaydi. Chin oshiqning so'zi-yu atvori, ilmi-yu amali bir bo'ladi. Haq jamoliga talabgor uchun eng katta to'siqlardan biri tamadir. Solik yolg'iz yorining jamoliga niyozmand bo'lsagina maqsadi yuz ochadi. Bundan boshqa har qanday niyozmandlik – o'zi uchun to'siq. Bordi-yu, dunyo ne'matlaridan zarracha bo'lsin, ilinji bo'lsa, orzusi ushalmaydi. Nazarning u yerdan sangdil holda chiqib ketishi – oshiqning (Fuod) riyodan, tamadan xalos topib, suratga bandilikdan bir qadar qutilib, ma'ni sari yana bir qadam tashlaganini bildiradi.

Zarq savmaasidan chiqqan Nazar tushkin bir kayfiyatda yo'lida davom etadi. Holi behad aftoda, manzil esa yiroq. Yiroqligi mayli, qaydaligi ham noma'lum. Shundan jonida o't, diydasida suv; tog'-u vodi, dasht-u sahro kezadi. Rohat harom-u mehnat halol edi. Nogoh yo'lidan besha – o'rmon chiqdi, vaxshatini ta'riflashga til ojiz. Barglaridagi shabnam ilon zahri, turli-tuman vaxshiy hayvonlar behisob, xorining nishi palang tirnog'i; nara sher mo'r-u malahdek, har birining savlatidan ins-u jins titraydi. Keksa chinorlari chiriganidan kavaklari g'ordek, shoxlari o'rni tuynukdek bo'lib, firoq shomidek qorong'u. U yerga ilon-u chayonlar in qurgan bo'lib, pashshasidan fil, tulkisidan sher hurkib ketadi. Xor-u xasning ko'pligidan na yurib, na uchib o'tib bo'ladi. Nahrlari yilondek, undagi suv – ilon zahri. Moboda shamol adashib kirib qolsa, qaytib chiqmog'i mahol ! Lekin Nazar behad hayiqqan bo'lsa-da, tavakkul qilib, bulbul gulistonga kirgandek beshaga kirdi. Nazar u yerdagi mashaqqatlarni ko'rgach, umidsizlikka tushdi va tinmay Allohga iltijolar qilardi. Bu tunni shunday qiyinchiliklar, uqubatlar tahlikasida

o'tkazdi. Kun yorishdi, iltijolari qabul bo'lib, g'oyibdan qulog'iga shunday so'zlar chalindi :

Dediki : - Ey ushshoq elida benavo,
Kimki fano bahrida g'avvos emas,
Durri baqo topmog'iga xos emas.
Shomi firoq ichra kim ermas najand,
Subhi visol o'lmog'usi sarbaland.

Mujdani eshitib behad suyungach, hotifadan bu qanday vodiylar ekanini so'radi.

Hotif : Dediki : - Bu dashti aloyiq erur,
Changali purxori avoyiq erur.

Shundan so'ng Nazar shodmonlik bilan yo'lida davom etdi.

Dostondagi ushbu dahshatli changalzor – insonni dunyoga bog'lab turuvchi, uni ruhi mutlaqqa tomon harakat qilishiga to'sqinlik qiluvchi qaydlar ramzidir. Tuning qoraligi hajrga, ilon-u chayon, qo'rqinchli maxluqlar – insondagi nafs qutqulari ramzi. Ularning changalidan omon qolish g'oyatda mushkul. Ulardan bo'lgan qo'rquvni, bandilik zanjirlarini uzib tashlash mardligi har qanday kishida bo'lavermaydi. Buning uchun buyuk himmat kerak. Bu dunyoga bo'lgan bo'glanishlarni, aloqalarni uza olish fazilatiga ega bo'lishgina yuksak muddao garovi bo'lishi mumkin. Nazarning (Fuod) qo'rqinchli beshadan o'tishi – dunyoga bo'lgan har qanday rag'batini, hoy-u havasini yengganidan dalolat. Demak, uning yanada poklandi, idroki kengayib, ruhiyati yengilashdi. Changalzor g'oyat mushkul bo'lgan sinovlarning majoziy ramzi hamdir. Bunday mushkul vaziyatda birdan-bir suyanch – sabr. Sinovlardan sal hayiqqan tolibga g'oyibdan ovoz kelib, madad berdi. Bu – yor har qachon oshiq'larga madadkor ekanligiga va mahlubiga ishoralar qilib, uni o'ziga chorlovchi ekanligiga, ozgina mehribonlik ko'rsatib, mashaqqatlarga toblovchi ekanligiga ishoradir. Oshiq bunday mujdadan boxabar bo'lgach, o'zida har qanday sinovga bardosh sezadi. Chunki oshiq shunday paytlarda bo'ston shamol shiddatini tortmaguncha, etagi to'la gul bo'lmasligini, la'l qattiq tosh ichra qolmaguncha quyshdek tovlanuvchi bo'lmasligini chuqurroq anglab yetadi. Ruhiyatida salobat, tamkinlik paydo bo'ladi.

Balo tikonlarodan behad uqubat tortgan Nazar qarshisidan endi Tahayyur bahri chiqdi. Bahrda ham qanchadan-qancha azoblarga duch keldi,

chorasizlikdan, hadsiz jabrdan hayiqish tuydi. Shu payt unga Nohid ko‘makka keladi hamda suzishi kerak bo‘lgan manzil nomi favz-u najot ekanligini, undan o‘tib biroz yursa, Himmat shohning Hidoyat shahriga duch kelishini aytadi. Bu paytda nazar :

Suv ichida tolpinibon telbalig‘ –
Zohir etar edi chu suvsiz balig‘.

Tahayyur (hayratlar) bahri – solik xayoloti. Ko‘z bilan ko‘riladigan daryo emas, balki oshiq botinida tug‘yon qilayotgan hayratlar mavji jamuljami. Undan eson-omon suzib o‘ta olsa, favz-u najot – qutilish sohiliga yetadi. Nohid – hayratga cho‘mgan, mukoshafadan xayolatga g‘arq bo‘lgan, vajdiy holatdagi tolibga kelgan ilohiy-g‘aybiy madaddir. Nohidning Nazarni oy-u yillab kemasiga solib olib yurishi, daryodagi ajoyibotlarni ko‘rsatishi – Nohidning (Yo‘lchi yulduz) tavaqquf, ya’ni voqiflik, haqiqat sirlarini kashf etish sari yo‘l boshlashidir. Mazkur bobda oshiq ilohiy fayz ko‘magida nima to‘g‘ri-yu, nima noto‘g‘ri ekanligi, bu orqali yor sifatlarini anglab borayotgan solik qiyofasida namoyon bo‘ladi. Shu o‘ringa qadar Nazar Ma’lum manzillarni bosib o‘tdi, ruhiy-ma’naviy takomil hosil qildi. Ammo u qidirayotgan obi hayotning manzilini bilolmay sargardon edi. Joni esa hayrat o‘tida. Xo‘sh, Nazarning bunchalik hayratga cho‘mishi nimadan-u, Nohid nimaning ramzi ? Tahayyur bahrining yana bir ma’nosi maqsadi haqida turfa ta’riflar eshitgan, qaysinisi to‘g‘ri-yu qaysinisi noto‘g‘ri ekanligini bilmay hayron bo‘layotgan solik ruhiyati ramzidir. Yoki kashfdan hayrat. Nohid – Mushkul vaziyatda mashuqaning yoriga ko‘rsatgan madadi, to‘g‘ri yo‘li. Nohid – yorug‘ yulduz degani. Endi nazar yo‘lchi yulduz ko‘magida ikkilanishlardan xalos topib, maqsadi sari to‘g‘ri yo‘lga tushadi. Navoiy oshiqning ko‘kka (ruhan) parvoz etishi uchun tajarrud va himmat – ikki qanot, deydi. “Tasavvufiy istilohda tajrid – shahvatdan yiroqlashish, ko‘ngil va ruhga qarshi har qanaqa tuban davoni tark aylash, mosivodan qutilish demak. Tajrid olami, aslida, sevmoq, sevilmoq, qalbni ishq-muhabbatdan boshqa hamma narsadan xalos aylab, ilohiy mushohada bilan yashash. Tasavvuf shayxlaridan biri “tajrid haqning har narsadan ayrilib yoq qolishi va qulining ham o‘ziga tegishli har narsadan uzoqlashuvidir”, deydi. Demak, oshiqning tajrid holi – mosivodan tamoman yiroqlashib, Allohga

yaqinlashuvi, ilohiy tajalliylarni tamosha aylashi edi. Endi himmat xususida... Tasavvufda bu kalmia ham xususiy ma'no bilan boyitilgan. Ibn Arabi uni komil inson qalbidagi ilohiy quvvat, sidq(haqiqiy sezgi) mazmunida ishlatib, tug'ma va keyin o'zlashtiriladigan himmat deya ikkiga ajratadi. Shuningdek, ahli ma'rifat himmatni odamdagi har bir harakat va o'zgarishning sababi bo'lmish yashirin kuch quvvat deb ham bilishgan. Shunday qilib, ulug' shoirning tajarrud bilan himmatga alohida urg'u berishida o'zga bir maqsad va haqiqat "parda" ortiga olingan ekan"¹⁵

Nazar mazkur boblarda hidoyaga kirib himmat hosil qilishni boshidan o'tkazayotgan oshiq qiyofasida tasvirlangan. Himmatshoh obrazi ikki xil ma'noni : ham oshiqning bir sifatini, ham solikka yo'l ko'rsatuvchi pir ma'nosini anglatadi. Himmat – Nazarning tariqat yo'lidagi birinchi piri, ammo u obi hayotning oldiga qadar olib borib qo'yolmaydi. Lekin obi hayotni qo'lga kiritishga yordam beruvchi odam va buloqqacha bo'lgan yo'lni aytishi mumkin. Himmat Nazarga yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan sinovlardan – Sagsor qal'asi va Raqib devdan xabar beradi. Raqib dev – nafs ramzi. Himmat Nazarning devdan oson qutilishi uchun gavhari donish beradi (Suhaylo Farhodga samandar yog'ini bergani kabi). Uni og'ziga solsa, hech kim uni ko'rolmasligini va Raqib dev sitamlaridan omonlik topishini aytadi. Gavhari donish – ogohlik gavhari, degani. Solik har qachon nafsiga ogoh bo'lishi, hushyorlik bilan nazorat qilishi lozim. Demak, dil uyg'oqligi, qalb bedorligigina nafsni muntazam nazorat qilish imkoniyatini beradi. Mobodo solik ozgina bo'lsin g'aflatga berilsa, chalg'ib qolsa, nafs kishini ming turli stamlarga solishi mumkin, demoqchi Nishotiy. Bu fikrlarni shoir Raqibning hashamatli, mahobatli qasrini ko'rib og'zi ochilgan va gavhari donishi tushib, devlar qo'lida balolarga giriftor bo'lgan Nazarning sarguzashtlari orqali ramziy ifodalagan. Nazarning gavhari donish va maktubni qo'lga kiritishi suluk tadrijida muayyan martabaga ko'tarilganiga ishora. Endi Nazarning ma'rifat oshdi, siyrati ravshanlashib, ruhiyati boyidi. Biroq hali bu obi hayot toppish uchun yetarli emas. Buning uchun Nazar Qomat ko'magiga muhtoj.

¹⁵ Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T. : Fan, 2011. 135 – 136-betlar.

Himmat dargohidan chiqqan Nazar sovuq yuzli toifalarga duch keladi. Ulardan gavhari donish ko‘magida qutiladi. So‘ng Sagsor darbandiga yetadi. Darband hokimi ko‘rsa o‘lim qo‘rqadigan Raqib dev edi. Nazar qal‘adda to‘rt ko‘zli ajinalar, maxluqlar, dev-u shaytonlarni ko‘rib dong qotadi, qon yig‘laydi. Lekin na biror sag (it), na biror dev uni ko‘rar edi. Chunki og‘zida ogohlik gavhari bor edi. Biroq nazar raqibning osmonga tutash Xisorini ko‘rganda dahshatga tushadi va hayratdan og‘zi ochilib qoladi. Natijada ogohlik gavhari yerga tushib, Nazar asl holiga qaytib, ko‘rinishli bo‘lib qoladi. So‘ng devlarga asir tushib, hadsiz jabr tortadi. Holbuki, Nazar Himmat so‘zlariga ko‘ra darbanddan hech qayoqqa qaramay, chalg‘imasdan o‘tishi kerak edi. Yodingizda bo‘lsa Farhod ham Syhaylo huzuridan chiqqach Suqrot oldiga borguncha ikki cheti harsang-u qirrali toshlardan iborat bo‘lgan tor so‘qmoqdan yurib, o‘n bir ming qadam bosishi kerak edi, agar ozgina bo‘lsin chalg‘isa, halokatga uchrashi tayin edi. “Bu solik Farhodning ruhiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlar; uning irodasi, sidq-u safosi sinovlari”.¹⁶ Demak, Nazar bu darbanddan chalg‘imasdan, ziyraklik va hushyorlik bilan o‘tishi lozim. Bu Nazarning irodasi, bardoshi sinovi, chunki oshiq butun diqqatini, qalb torlarini Iloh yo‘liga qaratsagina, ko‘zlagan maqsadiga yetishadi. Yo‘qsa Nazar singari nafs tomonidan balolarga muhtalo bo‘lishi aniq.

Raqib dev qo‘liga asir tushgan Nazar “kimyo” haqida so‘zlab, har fan aro mohirligini, istasa behisob xazinalar topishda yordam berishi mumkinligini aytadi. Raqib bu so‘zlarga ishonadi. Nazarning Raqibni avrab so‘zlariga ishontirishi yo‘lg‘onchilik emas, balki chin, yoki bo‘ysinmay qo‘ygan nafsni tarbiyat qilayotganidan dalolat. Solik qachonki nafs jilovni mahkam ushlasa, uni xibs qila olsa, orzusi ushalmog‘i mumkin.

Tolib anga o‘zlukin etmay adam,
Dashti talab sorig‘a qo‘ymas qadam.
Chashmayi chashmingda gar o‘lsa vujud,
Bermas o‘shul chashma senga qatra sud. (98)

Ya‘ni oshiq o‘zligini foniy qilib, uni qayta topmog‘i darkor. Bu nima degani ? Bu – dunyoga bo‘lgan mayllarini (birinchi o‘zlik, suratni) yengib, asl javhar, zot,

¹⁶ Komilov N. tasavvuf. – T. : Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009. 184 – 191-betlar.

ya'ni Ilohni topish (ikkinchi, chinakam o'zlik, mohiyatni) degani. Bir o'lib, bir tirilishi – zohiriy o'zlik, ya'ni nafsoniy istaklarni mahv etib, haqiqiy o'zlik, ma'nini anglash.

Sagsor qal'asidan salomat chiqqan nazar Habib shahriga Qomat sardor huzuriga yetib boradi va Himmat bergan nomani unga topshiradi. So'ng Qomat Jilva ismli kanizini hamroh qilib qo'shib, Nazarni manziliga yetkazib qo'yishini ayatadi.

Demak, Nazar nafs va uning qutqularini jilovlay oldi. Qomat dargohiga musharraf bo'lishdan oldin anoniyat belgilari – davlat va boylik, riyo, or va nomus, ikkilanishlardan xalos bo'ldi. Ko'ngil ko'zgusi dunyo ishqi g'uborlaridan tozalandi. Oshiqning ilmi g'aybdan, irfon sirlaridan xabardorligi, o'z-o'zini anglash jarayoni kuchaydi, oradagi pardalar birin-ketin ko'tarila boshlandi.

Nazar Qomat ko'magida Ruxsor gulshaniga yo'l topdi. Yo'lda dastlab Jilva, so'ng Gisu, Xol va oxirda G'amzaga duch keldi. Ularning barchasidan o'tib Ruxsor gulshani malikasi Husnni ko'rishga muyassar bo'ldi. Husn bilan suhbatlashib, savollariga javob bergach, malikia unga obi hayotdan nishona sifatida muhra va guvohlikka ikki kanizi Xayol va Nag'mani qo'shib shahzoda Fuod huzuriga yuboradi. So'ng Nazar Xayol va Nag'madek qanot qoqib uchib Badan qal'asiga keldi va shahzodaga ko'rgan-kechirganlarini aytib berdi. Obi hayotni topganiga muhrani nishona, Xayol va Nag'mani guvoh sifatida ko'rsatadi. Xayol shahzodaga Husn suvratini chizib ko'rsatsa, Nag'ma Diydor shahri to'g'risida shirin so'zlar aytardi: ikkisi Fuodni Husn tomon targ'ib etardi. Ularning so'zlarini Aqlshohning Vahm degan vaziri bir chetda pinhona tingalab, Aqlga barchasini yetkazdi.

Demak, Fuod Diydor shahriga yetgunga qadar qalbidagi dunyo g'uborlaridan tozaladi. Endi qalbining asl holidan voqif bo'lishi mumkin. U endi pok nazar, pok ko'ngilga ega bo'lgani uchun yor tajalliyotidan, mujdalaridan : qomati, jilvasi, sochi, xoli, kiprigi, yuzidan bahramandlikni sezyapti. Shu paytgacha obi hayotning qayerda ekanligini bilolmay, mavhumlikdan azob chekayotgan edi. Endi u maqsadidan nishonalar, belgilar topdi. Nishotiy Nazarni Fuod huzuriga

qaytayotganda “bol-u par” chiqarib uchdi, deydi. Buninig-da tasavvufiy mazmuni bor. Ya’ni o‘zidagi yuklar – dunyo havaslaridan xoli bo‘lgan ruhgina o‘zini yengil his etishi, qushday parvoz etishi mumkin. Chunki unda solik uchun eng zarur bo‘lgan ikki qanot – himmat va tajarrud bor. Nazarning uchib badan qal’asiga qaytishi esa, oshiq ruhining mushohada jarayonidan qalbda taskin topganiga ishora. Fuod – dil, qalb degani. Ishq esa qalbda, qalb esa badanda maskan tutgan. Bu mazmundan Fuod ham siz-u bizdek inson emas, bilaks majoziy-ramziy timsol ekanligi kelib chiqadi. Hozirga qadar tasvirlangan voqealarni shunday tushintirish mumkin : Oliy maqsad sari intilayotgan solikni tasavvur qilsak, Fuod (dil) ana shu solik qalbi, nazar esa solik qalbini makon tutgan ruh ramzidir. Ayon bo‘ldiki, dostonning hozirga qadar tasvirlangan voqealari – bir solik ruhining qalb qiynoqlariga, so‘roqlariga javob topish, o‘zligini anglash yo‘lidagi ruhiy-botiniy sayr-u sayohatlari ekan. Xayol bilan Nag‘maning muhra bilan Fuod (qalb) huzuriga tashrif buyurishi – ko‘ngil pokligi uchun yor xayoli va nag‘masi uni maskan qilganiga ishora. Zero, gard-u g‘uborlardan toza qalbgagina Yor mehmon bo‘lishi mumkin. Xayol chizgan surat ham harirga bo‘lmay, tasavvurimizdagi solik qalbiga ishqning naqshlanishidir. Dostonda suratni ko‘rgan Fuod hushidan ketdi, deyiladi. Bu ilohiy nur jilvalanishi, jamoldan bahramandlik holatida oshiqlarda ro‘y beradigan tabiiy-vajdiy holat, holga ko‘tarilganidan darak. Fuodni muhra berib o‘ziga keltirishlari esa – Yor so‘zlarining anglanishilayotganidan xabar. Muhra – jonon so‘zi ramzi. Hushini yo‘qotgan oshiqni yor so‘zlarigina o‘ziga keltirishi mumkin. Shunday qilib, Fuod obi hayotning manzilini qidirish jarayonida ma’rifatning bir qismi – maqomot manzillarini bosib o‘tdi, dardi nima ekanligini, uning davosini bildi; chinakam ishq – suluk mohiyatini angladi, o‘zligini hamda ilohiyotning sir-sinoatini taniy boshladi. Fuod endi chinakam oshiqqa aylandi!

Ammo avom xalq xosalar ishqini tushunmagani uchun Aqlshoh ham vaziri Vahmi balo va riyokor Shayx so‘ziga kirib o‘g‘li va uning hamdamlarini zanjirband etadi. Fuod va do‘stlari ishqsiz eldan malomat ko‘rib, zanjirband bo‘lib, beishqlardan azob ko‘rishadi. Bu Fuodning majoziy ishq uchun azoblar

tortishining boshlanishi edi. Endi u yorini topishi lozim. Biroq bu ish mazharsiz hosil bolmaydi. Farhod uchun mazhar Shirin, Majnun uchun layli bo'lganidek, Fuod uchun mazhar – Husn. Ammo mazharni toppish va undan bahramand bo'lishda solik uchun eng katta to'siq – aql. Chunki yordan bahramandlik oshiqdan majnunlik, avom xalq nazdidagi devonasifatlikni talab qiladi. Insondagi aql kuchi esa oshiqni ayni mana shu holatlarga o'tishini, jazba hollarini tuyishini, odatdagi ruhiy nuvozanatdan chiqishini istamayda, aql insonni o'z hukmi doirasidan chiqmagan holda, u o'rnatgan talablar asosida yashashini xohlaydi, ya'ni tanaga, kerak bo'lsa ruh-u qalbgga ham hukumronlik qilishni o'ylaydi. Bu haqida Munis yozadi :

Ey soqiy, olib kel menga bir sog'ari no'sh,
To sipqoribon ani qilay tarki hush.
Kim aql berib hamisha ko'nglimga xalal,
Qo'ymas ani majnun kabi aylarga xurush.¹⁷

Demak, insondagi aql kuchi ko'ngilning majnunlardek xurush – telbalik qilishiga to'sqinlik qiladi. Chunki ruhning intilishlari ancha yuksak, uni aql mezonlar o'lchashga kamlik qiladi. Shuningdek, ruhning erkinlik mayli aql hukmronligini rad etadi. Erkinlik – har qanday qaramlikdan xalos bo'lish. Ammo jism (mamlakat) bitta, unda ikkita hukmronning bo'lishi mumkin emas. Yo aql insonga bosh bo'ladi, yo ruh. Dostonning mazkur qismiga qadar Fuodning otasi Aqlshoh tilga olinmaydi. Nima uchun Aql voqealarga hozirgacha aralashmadi ? Chunki solik safarining boshlarida, ma'nan poklanishning ilk bosqichlarida aql rahnamoligiga suyanadi. Biroq Yor jamoli zuhridan bahramand bo'lishda solikning aqli o'zi uchun g'oyat katta dushman. Tajalliyotni his etish, ko'rish jazba holati, harakatarisiz amalga oshmaydi. Aqlning esa vajdiy, majzubiy hollarni tushinishga qurbi yetmaydi, bunday qudrat unda mavjud emas, u mahdud. Masur Hallojning dorga osilishi va Mashrabning qatl etilishi ham mana shunday ruhiy-irfoniy hollar bilan bo'g'liq edi.

Dostonning qolgan qismlarida Aqlshoh va malika Husnning otasi Ishqshoh o'rtasidagi jang tasviri berilgan. Bunga mantiqiy asos shuki, tanani aql kuchi

¹⁷ Shermuhammad Munis Xorazmiy. Saylanma. – T. : G'. G'ulom, 1980. 324-bet

boshqaradi, ilohiy ne'mat bo'lgan ishqni his etmoq, unga loyiq bo'lmoq uchun tana doimiy muvozanatidan chiqishi, noodatiy holga o'tishi kerak. Aql esa bunga qarshi. Mana shunday holatda oshiq botinida "ma'naviy jang" boshlanadi. Dostonda real jangdek tasvirlangan Ishqshoh va Aqlshoh o'rtasidagi jang – oshiq qalbida kechayotgan ikki ulug' kuch aql va ishq o'rtasidagi ma'naviy jangning ramziy-badiiy ifodasidir.

Bundan buyog'iga Fuod o'zi uchun mazhar – Husnga yetishish yo'lida majoziy ishq o'tida o'rtanadi. Majoziy ishq o'tida oshiq obdon tozalanadi, pishadi, sinovdan o'tadi, tanasi quruq xasday bo'lib boradi. Demak, Fuod sarguzashti ikki qismdan iborat : birinchisi (Diydor shahrigacha bo'lgan sayohatlar) – o'zligini anglash qiyinchiligidan iborat bo'lsa, ikkinchisi yorga yetishish iztiroblaridan tashkil topgan.

Keyingi boblarda, asosa, ikki shoh o'rtasidagi jang tasviriga bag'ishlangan. Real jangdek tasvirlangan mazkur jang, ta'kidlaganimizdek, oshiq jismidagi ikki kuch – aql va ishq orasidagi muhoraba ifodasidir. Aql – boshda, ishq – ko'ngilda. Ammo bosh ham, ko'ngil ham bir tanada. Holbuki, bir mamlakatda ikki hukmdor bo'lmaydi. Birining ikkinchisidan ustun bo'lmog'i shart. Oqibatda ishqshoh g'olib bo'ladi. Qizig'i Aqlshohni o'ziga vazir qilib saylaydi. Buning ma'nosi nima ? Tasavvufda Haq aqlan emas, qalban, ruhan anglanadi. Aqlning vazir bo'lganiga kelsak, har qanday tananing yashamog'i, harakatlanmog'i uchun aql zarur. Avom xalqda haqiqiy ishqdan boxabarlik bo'lmagani uchun, jismlarida aql eng qudratli va mutlaq hukmdor kuch sanaladi. Barcha a'molni u boshqarib turadi. Xoslarda esa aksincha, ishq ularning butun harakatlarini, hatto aqliy salohiyatlarini ham, nazorat qiladi. Ular ishqning zayliga qarab aql ishlatishadi. Shu bois xoslarda aql birlamchi, boshqaruvchi asosiy kuch bo'lmay, qalb va aslida butun tananing humdori bo'lgan ishqqa yordamchi, vazir hisoblanadi.

Nishotiy keying voqealar tasvirini ham ramziylik va hayotiylikni, majoz va haqiqatni g'oyatda san'atkorlik bilan qo'shib olib boradi. Fuodning jodugar Foriqa makriga uchrashi, Hijron qal'asiga qamalishi, chohdagi azoblar – tasavvufiy ma'noda oshiqning ma'rifat egallash jarayonida ruhiyati manzaralari ifodasidir.

Fuodning Hijron qal'asidagi chohda yotib Husn bilan yozishgan oshiq-mashuq maktublari – solik va u intilayotgan Yor o'rtasidagi ruhiy-mushohadaviy aloqadir. Fuodni bu zindondan qutqargan Sabr va Himmat – Yorga yetishish yo'lida oshiq o'zida tarbiyalagan fazilatlaridir. Ya'ni har qancha hajr, firoy, sinov bo'lmasin, chinakam oshiq uni sabr, yuksak himmat bilan yengadi. O'zida ushbu ikki sifatni tarbiyalagan oshiqqina vaslga yetishishi, oradagi pardalarni ko'tarib, ortidan boxabar bo'lmog'i mumkin...

Biz haminqadar "Husn-u Dil"ning irfoniyl mazmuni haqida umumiyroq bo'lgan qarashlarimizni bayon qildik. Dostonni hali yanada chuqurroq, sinchiklab tekshirish fanimiz uchun zarur. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, Nishotiyning "Husn-u Dil" dostonida ham Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida bo'lganidek haqiqiy ishq majoz yo'sinida bitilgan ekan. "Ishqni majoz usulida tasvirlashdan maqsad uni real hayotiy material orqali ko'rsatishdir; tirik insonlarning shavq-u zavqi, g'am va shodliklari, kurash va dramalari obrazlarda, voqea-hodisalar tasviri jarayonida beriladi, natijada so'fiyona dard g'alayoni keng o'quvchilar tab'iga mos keladiga sarguzasht ishqiy qissa ichida g'aydalanadi. Buni falsafiy-tasavvufiy ma'noni hayotiy material orqali badiiy talqin etish, deb atash mumkin. Zotan, hayotning o'zi butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan Iloh ilmining tafsiri, obrazlarda ko'rinishidir. Shunday ekan, shoir xoh majoz yo'sinida bo'lsin, xoh to'g'ridan to'g'ri haqiqatni qalamga olsin – u buyuk Tangri ma'rifatining badiiy talqinchisi bo'lib maydonga chiqadi."¹⁸

II. 2. Poetik ifodada ijodkor mahorati

Adabiy asar barkamolligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri uning badiiy jihatdan qay darajda yetuk ekanligidir. Adab ilmida badiiyatni tekshirish har qachon muhim sanalgan va bu ish maxsus fan sifatida o'rganilgan ham.

"Husn-u Dil" Nishotiyning ijodkorlik mahoratiga xolisona baho berish, shuningdek, XVIII asr epik she'riyati xususida ba'zi xulosalarni aytishga imkon

¹⁸ Komilov N. Tasavvuf. – T. : Movaraunnahr – O'zbekiston, 2009. 191-bet.

beruvchi boy adabiy manbadir. Mavjud tadqiqotlarda dostonning poetik xususiyatlari borasida qisman bo'lsada, mulohazalar, tahlillar bor.* Ammo, birgina, asarning sal kam 15 ming misra ekanligini yodga olsak, hali bu ishlar yetarli emasligi ma'lum bo'ladi.

“Husn-u Dil” badiiyati ancha mukammal. Dostonnavis mazmun ifodasi mobaynida o'quvchini rom etuvchi poetik kashfiyotlar qilgan. Shoir har bobda ifodalanajak mazmunga mos ma'naviy, lafziy san'atlarni qo'llaydi. Ularni qo'llash jarayonida mantiqiy dalillashga katta e'tibor qaratadi. Masalan, dastlabki, kirish boblarga sinchiklab qaralsa, asosiy she'riy san'at tazod va tanosib ekani ma'lum bo'ladi. Chunki muallif aytmoqchi bo'lgan fikrini o'xshash narsaga zid qo'yib taqqoslash, yoki qator sifatlarini keltirish orqali tezroq, kuchliroq yetkazish imkoniga ega bo'ladi. Hamd, nat, madh bitilgan boblarda qo'llangan tazod, boshqa boblardagi tazotdan taqqoslashga asos bo'layotgan narsaning rad etilmasligini, pastga urilmasligi, bilaks undan fikr qaratilgan narsaning yorqinroq ifodalash uchun vosita sifatida foydalanilishi bilan farqlanadi.

Hotami tayki erur dilpazir,
Bordur aning matbahidin bir asir.(19-b)

Kirish boblarida shoh sahovati borasida so'zlab Nishotiy mazkur baytni keltiradi: Elga mashhur sahovatpesha Hotamtoyni tariflayotgan shohining oshxonasidagi bir xizmatkor ekanligini aytish bilan shohning naqadar sahovat sohibi ekanini ifodalashga urinadi.

Madhlar bitilgan qismlarda tanosub ko'p uchrashiga sabab, bu san'at so'zlovchiga mulohazalarini keng, atroflicha va banafsil sharhlashga imkon beradi: Tanosubda ko'pincha uyadosh so'zlar qo'llangani bois madh bitish uchun eng munosib san'at turi hisoblanadi. Chungi hamd, nat, shohlar va alohida olingan shaxslar ta'rif-u tavsifiga bag'ishlangan boblarda qahramon vasf etiladi, sifatleri sanaladi. Shundan tanosub madhbob san'at deyiladi.

Har bob o'zgasini takrorlamaydi. Nasriy boshlanmadan she'riy tugallanmagacha bo'lakcha sifatlarga ega. Bob avvalidagi nasriy parchalar doston

* Izoh: Yuqorida ko'rsatilgan ishlarning barchasida doston badiiyati to'g'risida fikrlar bor.

davomida saj usulida bitilgan. Bir tomondan Navoiy nasrini yodga solsa-da, ba'zi jihatlari bilan farqlanadi. Masalan, "Husn-u Dil"dagi nasriy parchalar, albatta, yo kun chiqishi, yo kun botishi tasviri bilan boshlanadi. Navoiy "Farhod va Shirin"ida bu xususiyatni ko'rmaymiz. Peshso'z bo'lib kelgan nasriy parchalarni bobning mazmuniy mundarijasi, deyish mumkin.

Doston tashxis-shaxslantirish san'ati asosiga qurilgan. Isbot tariqasida boblardagi she'riy muqaddima bo'lgan tong tasirini keltirish mumkin. Shoir tong manzarasida ikki narsani: yo quyoshni, yo tunni bosh qahramon sifatida gavdalantiradi: Tong tasvirida ishtirok etuvchilar quyosh, oy, yulduz, zol, shafaq, shu'la, o'n ikki burj va boshqa osmon jismlaridir. 1967-yil X.Rasul va I.Rajabov nashrga tayyorlagan "Husn-u Dil"ni sinchiklaganimizda jami 28 marta tong va 8 marta tun tasviri qo'llanganligi ma'lum bo'ldi. To'g'ridan to'g'ri voqealar bayoni bilan boshlanuvchi boblar ham yo'q emas. E'tiborlisi, 28 ta tong manzarasi betakror-28 xil.

Qal'ai charx ustidagi diydabon,
Ochti ko'zin uyqusidin nogahon.
Ko'rdiki dahr ahliga oshub edi,
Zulmati g'am birla lakad ko'p edi:
Rahm etibon ahli jahon holig'a,
Balki nazar ahlining ahvoliga.
Tig' chekib, qo'pti yeridin ravon,
Zulmati xavf ila chu bo'ldi nihon.
Ya'ni chiqib burji sharafdin quyosh,
Nuri saodat elaro qildi fosh. (58-b)

Bunday peysajlar uchun mushtarak xususiyat-quyosh tirusolining shaxslantirilganligi va voqealar rivojidagi lirik qahramon ahodi-ruhayti bilan bilvosita bog'langanligidir. Quyosh "kulib yuz ochsa", demak qahramonga ham yaxshiliklar ro'baro' bo'ladi, "qovog'i soliq" bo'lsa, ma'lum taziqlarga uchraydi. Subh manzaralari ko'zlangan maqsad, bir holatning ifodasi ekanligi kabi jihatlari bilan umumiylik kasb etsada, ifoda usuli, timsollari borasida mutlaqo betakror. Ulardagi tashxis, tashbeh, tanosib, tazod, intoq kabi san'atlar fikr bilan uyqashib shu baytlar uchungina xos estetik muhit hosil qilgan. Xamsa yozishni ko'zlagan

Nishotiy bitta subh tasvirini tavsiflash mobaynida qaytariq bo‘lib qolmasligiga astoydil tizishgan.

Subh asadi qildi ayon kulkusin,
Sayd etibon kecha qaro tulkisin.
Buzdi hamma anjumani anjumiy,
Sarsar aniqdekki sovurg‘ay qumi. (79-b)

Yuqoridagi 2 baytda 6 ta tashbeh qo‘llangan. Subh asadi-oftob (1), kecha tulkusi-tun (2), subh asadi kulkusi-quyosh chiqishi (3), subh asarining kecha tulkisini sayd etishi-tong otyotgani (4), anjumani anjumiy-yulduzlar ko‘pligiga (5), kun chiqib yulduzlar ko‘rinmay qolishi-shiddatli shamolning qumni to‘zitganiga (6) o‘xshatilmoqda.

Metaforik ko‘chishli badiiy lavhalar kitobxonda ishtiyoq, mazmunga qiziqish uyg‘otadi. Tong tasvirlari, asosan, 4-5, ba‘zan 10 baytli bo‘lishi mumkin. Ularda muntazam “kun eli” va “tun eli” qarshi qo‘yiladi. Samoviy jismlar tashbihiga asoslangan qarshilantirish tong lavhalariga farax baxsh etgan.

Dilbari subh uyqudin ochti ko‘zin,
Qildi shafaq g‘ozasi gulgun yuzin.
Bo‘lmoq uchun olamaro nur fosh,
Chiqti falak taqiga ya‘ni quyosh. (135-b)

Dostonda hammasi bo‘lib sakkiz marta tun tasviri qo‘llangan. Bunday lavhalar quyosh botishi va zulmat elining jabr-sitami orta borishini ifoda etadi. Ular ham bir-birini takrorlamaydi. Ham tong tasviriga nisbatan antitezani hosil qilgan.

Xulosa shuki, tong vat un manzaralari tasviriga bag‘ishlangan peysajlarini jamlab, alohida tadqiq manbai sifatida o‘rganish lozim. Chunki bir asarda bir narsaning salkam 30 xil ifodasi kamdan kam uchraydigan badiiy hodisadir. Dostonning bu jihatini o‘rganish Nishotiy mahorati sirlarini ochishda, yosh qalamkashlarga saboq berishda qo‘l kelishi mumkin.

“Husn-u Dil”ning o‘quvchini rom etadigan fazilatlaridan biri obrazlaridir. Shoir timsollarni qunt bilan mehr bilan ishlov berib, maqsad yo‘lida mantiqli ishlata bilgan. Dostonda 100 dan ortiq obraz tasvirlangan. Timsollarning barchasi

irfoniy mazmun ifodasi uchun majoziy-ramziy shaklda qoʻllanilgan. Obrazlarni mavhum yoki konkret tushuncha, shaxs yoki joy maʼnosini anhlatisiga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin. Biz ularni quyidagicha tasnif qildik.

1. Shaxslik maʼnosida tasvirlangan obrazlar. Ular ham ikkiga boʻlinadi:

a) aniq tushuncha nomlari;

b) mavhum tushuncha nomlari.

a) aniq tushuncha nomlari:

- | | |
|-------------|---------------------|
| 1. Qomat; | 10. Shamshod; |
| 2. Qisu; | 11. Kosai Chin; |
| 3. Xol; | 12. Nargis; |
| 4. Chang; | 13. Binafsha; |
| 5. Nay; | 14. Bulbul; |
| 6. Daf; | 15. Lochin; |
| 7. Gʻamza; | 16. Bashir; |
| 8. Sarbonu; | 17. Asvad; |
| 9. Qul; | 18. Sarvi Sarafroz. |

b) mavhum tushuncha nomlari:

- | | | |
|--------------|----------------|-------------------|
| 1. Aql; | 10. Toʻrtkoʻz | 19. Ish va eli; |
| 2. Nafsbonu; | maxluqlar; | 20. Karashma eli; |
| 3. Fuod; | 11. Raqib deb; | 21. Shamoyil eli; |
| 4. Nazar; | 12. Husn; | 22. Nido xayli; |
| 5. Nomus; | 13. Nagʻma; | 23. Noz; |
| 6. Faxr; | 14. Xayd; | 24. Vafobonu; |
| 7. Zarq; | 15. Vahm; | 25. Nojib eli; |
| 8. Nohido; | 16. Tasalliy; | 26. Mehri |
| 9. Himmat; | 17. Ishq; | olilavar; |
| | 18. Gʻam; | 27. Ishva; |

28. Anduh;	36. Fasod;	44. Ag‘yor;
29. Tavba;	37. Shakiybo;	45. Shavq;
30. Qahr;	38. Furqat;	46. Qanoat;
31. Namima;	39. Hajr;	47. Ruh;
32. Xannos;	40. On;	48. G‘ayrat;
33. Idbor;	41. Tabassum;	49. Takallum;
34. Xashm;	42. Sheva;	50. Og‘ush;
35. Kiyna;	43. Foriqa;	51. Ilhom.

II. Manzil maqomida tasvirlangan joy obrazlari. Ular ham ikkiga bo‘linadi:

- a) aniq tushuncha nomlari;
- b) mavhum tushuncha nomlari.

a) aniq tushuncha nomlari:

1.Burmon;	7.Zayxun;
2.Badab qal’asi;	8.Sayxun;
3.Diyda qasri;	9.Mozandaron;
4.Diydor qo‘rg‘oni;	10.Zanahdon chohi;
5. Ruxsor gulshani;	11.Fan chashmasi
6.Xito mulki;	

b) mavhum tushuncha nomlari:

1.Ofiyat mulki;	9.Hijron qal’asi;	16.Riyo tog‘i;
2.Salomatlik qasri;	10.Xirmon choxi;	17.Favzi najot;
3.Shuhrat shahri;	11.Firoq vodiysi;	18.Adab mulki;
4.Tahayyur bahri;	12.Ushshoq vodiysi;	19.Ko‘hi Qof;
5.Hidoyat shahri;	13.Vafo bog‘i;	20.Aloyiq
6.Saqsor darbandi;	14.Bexor gulzori;	changalzori;
7.Habib shahri;	15.Jannatobod	21.Qay vodiysi.
8.Armon vodiysi;	ravzasi;	

Sanalgan obrazlarni faol-nofaol, ijobiy-salbiy, bosh-epizodik kabi asoslarga ko'ra ham guruhlash mumkin.

Obraz yaratish va mazmun yo'lida o'rinli ishlatishda mahorat ko'rsatgan Nishotiy muvaffaqiyatini ta'minlashda qahramon hamda harakatining hayotiy asoslar bilan dalillanganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Dostondagi har bir timsol ko'r-ko'rona emas, o'quvchini ishontiruvchi real asos bilan mantiqiy dalillanib ishlatilgan. Masalan, ikki ulug' shoh o'rtasidagi muhorabada Aqlshoh dastlab sara askarlaridan bo'lgan Shakiyboni maydonga chiqaradi. Ishqshoh esa G'amni jangga tashlaydi. Temirtan Shakiyboni pahlavon G'am yer tishlatadi. Ammo Aqlning sabr degan jangchisi maydonga tushib, beomon sovoshda sabrga omad kulib boqadi. Ishq eliga shikast beradi. Buni ko'rgan Ishqshoh G'amzani jangga tashlaydi, natijada u Sabrni jarohatlaydi.

Bir qarashda oddiy jang tasviri. Ammo jangchilarchi? Nima uchun temirtan Shakiyboni G'am, G'amni Sabr, Sabrni esa G'amza yengadi? Nishotiy bunday tasvirda hayotiy asoslarga tayangan. Chunki g'am temirdan qattiq narsani ham yemirishi mumkin, biroq sabr har qanday g'amni yenga oladi. Baxtning kaliti-sabr. Shoir shu mantiqiy asosga tayanib "Sabr G'amga shikast berdi", deydi. G'amzaning Sabrni jarohatlashi esa ishq bilan bog'liq. Ya'ni oshiq har qancha sabrli bo'masin, yorning qalbni o'rtovchi g'amzalarini ko'rganda dardlarini yashirgani bardoshi yetmaydi. Shu bois "g'amza" mumtoz adabiyotimizda "sir ochuvchi, chaqimchi" kabi iztilohiy ma'nolarda qo'llanadi. Nishotiy ushbu voqelikka asoslanib "G'amza Sabrga ustun keldi", deydi.

Dostonda Aqlshoh timsoli ham anchayin ishonarli chiqqan. U vaziri Vahm so'zlariga ishonib Ishqshohga qarshi urush ochadi. Yo'lda savlatidan kibrlanadi, manmanlikka beriladi, oxirda Husnning Oh degan kanizagiga asir tushadi. Bular nimani anglatadi? Haqiqatda, inson aqlida vahimaga, kibrga, manmanlikka beriluvchan. Insoniy aqlni bunday qusrlarini Nishotiy to'rt hikoyat orqali ishonchli tasvirlab bergan. Dostonnavis Aqlni ulug' shohlardek tasvirlaydi. Nega? Chunki inson aqli juda ko'p ishlarga qodir. Insonlar nazdida buyuk hisoblanuvchi juda

“katta” karomatlarni qila olishi mumkin. Ammo buyuk Aqlshoh Ishqqa bas kelolmaydi, yengiladi: Negaki aql vujudiy, ishq ruhoniy! Inson ongi dunyoviy, vujudiy muammolar, sir-sinoatlarni anglashga, hal etish imkoniga ega. Biroq Haq zuhrini tahammul qilishga, mushohadalashga o'z. Bunday ulug' ishlarga ishqgina qodir.

Shuning uchun muallif savosh so'ngida Ishqshoh g'alabasini tasvirlash orqali obrazlarining tasavvufiy-irfoniy dalillanishini ham to'g'ri hal etadi.

Nishotiy obrazlari majoziy-ramziy xarakter kasb etsa-da, ularning xoh hayotiy, xoh tasavvufiy bo'lish tayanch nuqtalari bor. Bun parichexra Husn tasviridan ham ko'rish mumkin. Shoir malika Husnning eng yaqin dugonasi Vabonu, Noz va Xayol ekanligini aytadi. Mashuqa, avvalo, vafoli, so'ngroq go'zal, nozli, hayoli bo'lmog'i darkor, shunda bir husni ming bo'ladi, demoqchi shoir.

G'amza-u Ishva dog'i On-u Ado,
Sheva Karashma dog'i Mehr-u Vafo,
Yana biri Nozi fusunsoz edi,
Birri oti Sarvi Sarafroz edi,
O'n adad erdi bu bori mahluga,
Aysh ichida erdi bular ila “yo”. (250-b)

Sanalgan o'n qiz Husnning sifatlaridan boshqa narsa emas. Buni so'nggi satrdagi so'z o'yizu isbotlaydi. Shoir Husnning hamrozlari bilan hamisha hamdam ekanligini “aysh”-shodlik, hurramlik so'zi o'rtasida “yo” harfining joylashuviga o'xshatadi. Bu ijodkor mahoratining bir tomoni. Ikkinchidan tashbeh uchun har qanday so'z o'rtasidagi biror harf joylashuvini emas, aynan “aysh” so'zini tanlaydi. Negaki, bu so'z mazmuni “hamdamlik” yor-u do'stlik” holatlari anglatgan ma'noga ancha yaqin. Bundan tashqari “aysh” so'zi tarzida o'rtasidagi “yo” harfi ikki tomonga mahkam bog'langan holda yoziladi. Bunchalik zukkolik Nishotiyning arab tilini mukammal bilganidan darakdir. Shu va shunga o'xshash betakror tashbihlarni har bir qahramon tasvirida uchratish-dostonda odatiy hol.

Ko'p ming yillik tarixga ega adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha diqqat markazida bo'lgan. U yoki bu ijodkor mahorati, salohiyati haqida so'z borar ekan uning “nimalarni” tasvirlagani bilan bir qatorda “qanday” tasvirlaganiga ham

alohida ahamiyat berilgan va shu asosda san'atkor baholangan. Jumladan, adabiy asoslarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda ham shoirlikning asosiy qirralaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

She'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirishga, misralar, baytlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Lirik turdagi asarlar tahlil qilinar ekan, albatta, shoir uchun muddaoni tasvirlash va o'quvchiga manzur qilishda birlamchi vositalardan bo'lgan she'riy san'atlarni tadqiq etish, o'rganish, mazmun mohiyatini ochib berish tadqiqotchi oldida turgan bilamchi vazifalardan hisoblanadi.

“U yoki bu shoir ijodiga, u yok ibu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z akisni topgan ijtimoiy siyosiy, falsafiy-ahloqiy, ma'rifiy tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalrga ham alohida diqqat qilingan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy mahoratini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy ahloqiy g'oyalarni jilollantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan”¹⁹.

“Husn-u Dil” katta bir she'riy san'atlar guldastasi. Nishotiy tas'vir usullari borasida istedodini namoyish qilgan. Bu asarning badiiy jihatdan mukammal, baquvvat bo'lishini tamin etgan. Tadqiqotimizda poetik mahorat masalalarini qisman yoritish nazarda tutilganligini hisobga olib, asosiy va eng ko'p qo'llangan dostonga hos san'atlar borasida to'xtalib o'tamiz.

Mubolag'a – arab tilida “kattalashtirish, kuchaytirish” ma'nosini bildirib, asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash demak. Bu san'atni tekshirishda nozik bir jihatga diqqatlash lozim. Ya'ni so'zlaovchi nimani bo'rttirayotganiga qarab mubolag'alar bir-biridan juz'iy farq

¹⁹ Hojiahmedov A. “She'r san'atlarini bilasizmi?”. -T.:Sharq. 2001. 4-bet.

qiladi. Kuchaytirishni mana shu asosda bir necha turlarga ajratish mumkin. Masaln, “jism” kattalashtirilsa, “jism mubdag‘asi”, harakat kuchaytirilsa, “harakat mubolag‘asi”, fikr mubolag‘ali bo‘lsa, “fikr mubolag‘asi” kabi.

Urg‘anidan jonig‘a o‘t ul-xarob,
Olam etar erdi araq goh tob. (57 – b)

Mazkur bayt Fuodning “Obi hayot” haqida o‘qib chekkan ohini bo‘rttirib ifodalagan. Bechora Fuod ichida yonayotgan ishtiyoq olovi haroratidan olam goh kuyib, goh terga botar ekan! Shoir baytda “holat mubolag‘asi” –ni qo‘llash orqali tasvirlayotgan timsoli botinida kechayotgan ruhiy holat nihoyatda kuchli ekanligini aytmoqchi. Aloyiq dashti tas’virida berilgan quyidagi baytlarga diqqat qiling:

Sof ziloliy bo‘lubon sammi xor,
Naxri yiton suyi aming zahrivor.
Yo‘l oribon sahvi ila nogoh shamol,
Kirsani chiqmog‘i eroli mahol. (81 – b)

Mazmuni: 1) Tikonlari zahri sof zilol suvdek, Naxri yilon, unda o‘quvchi suv ilon zaxri; 2) Nogah, shamol yo‘ldan ozib u yerga kirsani, qaytib chiqmog‘i mahol.

Birinchi baytda nisbatan tashbihmasmi? degan e’tiroz tug‘ilishi mumkin. Baytda tashbih bor, ammo mazmundan o‘xshatishga asoslanib fikr kuchaytirilayotgani sezilib turadi. Dastlabki baytda “Bu yer inson uchun g‘oyatda xavli” degan fikr kuchaytirilgan. Keyingi baytda ham yuqoridagi mazmun tadrijiy rivojlantiriladi va “bu yer insonni adashtiradi” tarzidagi fikr yalang‘och taqdim etilmaydi, mubolag‘a libosi kiydirilib, go‘zallashtirilib havola qilinadi, natijada fikr o‘zgarmaydi-yu, uning ta’sir kuchi ortadi va o‘quvchini asarga jalb etadi. Demak, bu o‘rinda “fikr mubolag‘asi” qo‘llangan ekan. Quyida dostonda uchrovchi mubolag‘a san’ati namunalaridan ba’zilarini keltiramiz.

Oh yeli birla falak mash’alin,
Ham o‘churub, ham uchurub manqolun.
Qildi qorong‘u bori olam uyin,
Balki muallaq yeti toram uyin. (82 – b) Harakat mubolag‘asi.

Kelmas edi ko‘rgali ani ajal,
Chunki ajalga edi andin xalal. (111 – b) Jism mubolag‘asi.

Ko'k temur ila yer o'lub charxvor,
Ko'k edi yerdek chig'ibon ul-g'ubor. (221 – b) Bu holat
mubolag'asi.

Hotami tayiki erur dilgazir,
Bordur aning matbahidin bir asir. (19 – b) Fikr mubolag'asi.

Tashbih – arabcha “o'xshatish” degani. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi real yo mavhum jihatlariga ko'ra o'xshatish san'atidir. “Tashbih” vasfta bir nimani bir nimaga o'xshatmoqlik iborattur. Anikim, tashbih qilular “mushabbah” derlar va anikim, anga tashbih qilurlar “mushabbah beh” derlar va ul vasfni “vajni shibh” derlar”²⁰.

Ushbu san'at tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asarda ishtirok etuvchi timsollar ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, shuningdek, ijodkor fikrlarini o'quvchi ongiga yaxshi va to'laroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Masalan, Nishotiy “Quyosh chiqqach, yulduzlar ko'rinmay qoldi” degan barchamizga ma'lum fikrni tashbih vositasida shunday ifodalaydi:

Buzdi hama anjumani anjumiy,
Sarsar asungdekki sovurg'ay qumi. (79 – b)

Ya'ni, quyosh bebosh shamol qumni ko'kka sovurgandek ko'kdagi yulduzlar to'lasini yo'q qildi.

Tashbihda, albatta, o'xshatilayotgan ikki jihat o'rtasida mantiqiy asos, bog'liqlik bo'lishi shart. Yuqoridagi o'xshatishda mantiqiy asos sifatida qum zarralarining son-sanoqsizligi va yulduzlarning beadabligi xizmat qilgan.

Yig'nadi chun sabr-u sukun langarin,
Buzdi tavaqquf kemasi paykarin. (88 – b)

Baytda Nishotiy qahramonning maqsad sari otlanganini “sabr-u sukun langarin yig'inadi” deb noyob tashbih bilan ifodalaydi. Kemani bir joyda muqim

²⁰ Atoullloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi.-T.: G'.G'ulom, 1981. 312-b.

ushlab turishni narsa langar, insonni sobit qilib qoluvchi his sabrdir. Shoir baytda jism (langar) va his (sabr) o'rtasidagi xususiyat o'xshashligini fikriga mantiqiy asos qilib olgan.

Bahr yuzidin uchubon murg'i mavj,
Dashti fano sari alar tutti avj. (93 – b)

Bilki jahon vodiya Armon erur,
Sohiruga pesha pushaymon erur. (212 – b)

Bo'yla edi ul ikiga guftugo',
G'am kelib shah qoshig'a ro'baro'.
Kaf labidan fosh etib andoqki bahr,
Ko'zlar anga qahr ila chun tashti zahr. (217 – b)

Yetti falak gard ila bo'ldi zamin,
Bo'ldi zamin o'ylaki charxi barin. (222 – b)

O'qlar o'lub o'ylaki murg'i ajal,
Qo'nmog'iga topmas edilar mahal.
Chunki ajal ko'p edi, jon oz edi,
Yon tilabon har sari parvoz edi. (223-b)

Husni talil – arabcha “chiroyli dalillash” degani. She'riyatda tasvirlanayotgan hodisaga shoirona sabab ko'rsatish san'ati. Bu san'atni tamsildan farqlash lozim. Husni talil aytilgan fikrni shoirona isbot etishni, tamsil esa birinchi satrdagi fikrga ikkinchi satda hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishni ko'zda tutadi.

She'riyatimizdan munosib o'rin egallagan bu tasvir usulining xususiyatlari o'tmish adabiyotshunoslarining asalarida ta'kidlab ko'rsatilgan. XI asrning oxiri va XII asr boshlarida yashab ijod etgan taniqli alloma Rashididdin Votvot “Xadoyiq us-sehr fi daqoyiq ash-she'r” asarida ushbu san'atni shunday ta'riflagan: “Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, shoir baytda biri-birining sababi bo'lgan ikki sifatni bildiradi, aslida esa bu haqda so'z yuritar ekan, asarining chiroyli va betakror bo'lib chiqishi uchun ular o'rtasida biron munosabat topishni istaydi, xolos”.

XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan adabiyotshunos olim mavlono Atoullloh Husayniy “Badoyi us-sahoyi” kitobida mazkur san’at haqida shunday yozadi: “Husni talil uldurkim, bir nimaning bir sifatini iqrar qilurlar va ul sifatni isbot qilish uchun ul nimaning o‘ziga munosib bir illat-u sababini keltururlarkim, haqiqatta ul sabab bo‘lmag‘ay, lekin lutf e’tibori bila ani sabab qilgan bo‘lurlar”²¹.

Bu san’at she’riy ifoda usullari orasida ijodkor ziyrakligini ko‘rsatuvchi usul bo‘lganligidan uni yaxshi qo‘llay bilish mahorat nishonasi hisoblangan. Bu san’at qadimdagini emas, bugun ham o‘rganilmoqda, unga bag‘ishlangan tadqiqotlar yaratilmoqda²².

Masalan, Nishotiy quyidagi baytlarda bildirilgan fikrga rad etib bo‘lmas dalil keltiradi:

Chashming erur chashmayi ohi hayot,
Ongla, yaqin uchmoqa uldur qanot.
Chashm yozar onida ahli qalam,
Chashma yozibdur ani ey muhtaram.
Sahi ila “no” yozmish ani begumon,
Ko‘rki erur sahvaro “no”g‘a makon. (77-b)

Nazar Zarqdan obi hayotni so‘raganida yuqoridagi so‘zlar bilan, ya’ni, “Sen izlayotgan obi hayot nadomat ko‘z yoshlaridir, qalam ahli chashm-ko‘z” yozaman deb, “Sahv-xato” bilan “Chashm” so‘zining oxiriga “Ho” (a) ni qo‘shib yuborgan, shundan beri “Chashma” o‘qiladi, vaholanki, bu xato, ishonmasak qora “Sahv-xato” so‘zi o‘rtasida ham “Ho bor”, deydi. Arab harflari bilan bog‘liq bu poetik kashfiyot shoirona lutf ko‘rsatishning ajoyib namunasidir. Nishotiy arab tilini mukammal bilgani uchun arabiy hatflarga asoslangan husni talil namunalarini bir necha bor mahorat bilan qo‘llash orqali qahramonlari ruhiyatini yoqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Ammo Nishotiy togan dalillar bini hayron qoldiradi. Unga ishongingiz keladi. Chunonchi, Nazar Faxrdan obi hayotni so‘raganda shunday javob eshitadi:

Shoh kulib dediki: - ey bexabar,

²¹ Atoullloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi.-T.: G‘.G‘ulom, 1981. 138-b.

²² Hojiahmedov A. Husni ta’lil san’ati.-T.:Yangi asr avlodi, 2008.

Son deganing bordurur ul siym – zar.
Ahli qalam yozgʻanida mol-u jon,
Sahv ila yozmishtur ani mo-vu choh.
Lomini isqot etib ahli qalam,
Barcha gʻalat sarigʻa qoʻydi qadam. (71-b)

Yaʼni, ey behabar, sen soʻrayotgan narsa siym – u zar, qalam ahli “mol-u joh” yozar mahalida mol soʻzidagi “lom”ni tushurib qoldirgan, shundanj bu soʻzni xalq “mo-vu choh – suv-u buloq” deb oʻqiydi; deydi. Haqiqatda arab alifbosidagi harflar bilan yozilgan mol soʻzidan “l” tushurilsa, “mo”, yaʼni “suv” deb oʻqiladi. “Joh” soʻzi ham “choh” soʻzining yozilishiga juda yaqin, ular nuqtalari miqdoriga koʻra farqlanadi, xolos. Eʼtiborlisi, shoir bu sanʼatdan aslida fikri yolgʻon-u, lekin bunga baʼzi sabablarni roʻkach qiluvchilar nutqini tasvirlashda foydalanadi:

Ob-sharob ustida shardur yaqin,
Istamasang shar, anga boʻlma qarin. (120-b)

Oxiri umr oʻldi raqam mimaro,
Marqqadur ul ikovi peshvo.
Umr ikki hissasi murdin nishon,
Boʻlsa ne deb boʻlmaquvsi talh jon. (164-b)

Kimki jahon mulkida sulton erur,
Oxirigʻa boqki biror on erur. (185-b)

Taxt bila taxta boʻlub tavomon,
Oxiri davlat lat erur begumon. (196-b)

Kitobot – ikkinchi nom bilan “Harfiy sanʼat” deb ham yuritiladi. Mumtoz adabiyotimizda anʼana tusini olgan va nihoyatda tashbihga yaqin boʻlgan ifoda usuli. Harfiy sanʼat arabiy harflar shakliga asoslanib lirik qahramon kevhinmalarini, Oʻy hayollarini oʻquvchi koʻz oʻngida yorqin tasʼvirlab berishni koʻzda tutadi. Bugungi kunda sheʼriyatimizda mazkur sanʼat turi qoʻllanmaydi hisob.

Kitobotning mumtoz namunalarini malikulkalomlarimiz Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur kabi similar ijodida borligini bilamiz. Nishotiy ham bu borada ustozlaridan oʻrnak olgan.

Har neki bor rug‘amaro lom-u dol,
Aksi diimdur sango der arzi hol. (293-b)

Ya’ni, maktubimdagi lom-u dollar dilim dardlari aksi, ular senga holimdan habar beradi. O‘quvchi “lom” va “dol” harflari naq ikki bukilgan holda yozilishini bilsa, oshiqning ahvoli g‘oyatda harob degan fikrni tushunib yetadi, demak, bu ifoda usuli arabiy harflarning egik, tik, buralgan shakllari chambarchas bog‘liq ekan. Bu san’at va u orqali yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrni anglash uchun arab alifbosidagi harflar shaklidan habardor bo‘lish lozim.

Har “alif”ikim bor edi nomada,
Ming suvri bor edi hangomada.
Saro barbi barcha sarafroz edi,
Har birisi dog‘i olishi noz edi.
Onda nekim “lom” edi-yu “mim”-u “dol”,
Sochdin, ikki zulfdin erdi misol.
Ayni bor edi oning ekun huri ayn,
Solmoq uchun ehli jahon ichra shayn.
“Miyim”i og‘izdin dog‘i erdi nishon,
“Lom” ila “bo” bir bo‘lubon jon-jon...
“Nuni oning qoshi edi surmagun.
Yoyi siyah tuz edi yo ushbu “nun”...
“Sin”i bu bechoraga erdi quyosh,
“Ro”si qaro tunga qamar qildi fosh.

Tanosub – baytlarda ma’no jihatidan yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab, obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san’atidir. Ushbu san’atni qo‘llashdan ijodiy maqsad aytilajak fikrni unga oid, yaqin bir necha tushunchalarni keltirish orqali ta’kidlashdan iborat. Tanosubning afzal tomonlari fikrning kengroq va tushunarliroq ifoda etishga imkon berishi, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq mahoratni nomoyon etishga yo‘l berishidadir. Bu san’at epik she’riyatga xos tasvir usuli sanaladi. Tanosubning qo‘llanish o‘rni ham tayin: ko‘proq ta’rif-u tavsiflariga bag‘ishlangan o‘rinlarda uchraydi.

Bor edi bir duni falokat maob,
Erdi najas surat-u nahs intisob.
Zisht0u yomon surat onga ham siyar,
Ul bir edi bu biridin yuz batar.
Yuz onga oyinai iblis edi,
Ko‘z onga qorurai talbis edi.

Bor edi g'addora-u makkora ham,
Qotili fattora-u sayyorai ham.
Savti girya edi nechukkim eshak,
Erdi baroq o'ylaki tuklas ko'pak. (271-b)

Ushbu lavha makkora Foriqa tasviriga bag'ishlangan. Shoir sifatlash, ya'ni mohiyatan bir-biriga yaqin, ammo mazmun qirralarida farqlanuvchi so'zlarni qo'llash orqali ma'lum tanavvur uyg'otishni ko'zda tutadi. Demak, ta'rif-u tavsifga bag'ishlangan o'rinlardagi tanosub qahramonning suvratin-u siyratin ochib berishda epik she'riyatning asosiy tasvir vositasi ekan.

Bu san'at eng ko'p uchraydigan o'rinlardan yana biri ma'lum mavzuga oid fikrlar bayonidir.

Bo'lmasa bu yo'lda agar rohi bar,
Yetgusi solikka adadsiz xatar.
Partav agar solgusi shayton anga
Degusi ul partavi rahmon anga.
Ongaberib dev shayotin berib,
Haqq'a o'zin degusi bilmon qarib. (273-b)

Satrlardagi "rohi bar", "solik", "partav", "shayton", "rahmon", "haq" so'zlari tasavvuf ta'limoti tushunchalarini anglatadi. Ularni qator qilib tuzishdan shoir irfoniyl mulohazalarini keng va ta'sirchan yetib borishini ko'zlagan.

Tamsil – "misol keltirish" ma'nosini anglatib, birinchi misrada bildirilgan fikrga, ikkinchi misrada hayotiy va haqiqatda mavjud bo'lgan voqea yoki hodisani misol sifatida keltirish san'atidir. "Tamsil. Shams-i Qays deptur: bu ham istiora jumlasidindur, ammo bu istioraning misol yo'llug' navidur, ya'ni shoir bir fikrga ishora qilmoqni istaganda o'zga bir ma'noni bildirguvchi bir necha harfni keltirur va ani maqsaddagi fikrning (mubolag'a) misolig'a aylantirur va o'z fikrin o'shal misol bila ifoda qilur. Bu san'at sof istioradin xushroqtur, andoqkim"²³:

Kim fano bahrida g'avvas emas,
Durri baqo tepmoqig'a xos emas.
Chekmasa day shiddatini bo'ston,
Bo'lmas edi jaybi to'la guliston. (84-b)

²³ Astoulloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi:-T.: G'.G'ulom, 1981. 220-b.

Ya'ni kimki o'zidagi o'tgunchi hislarni yo'qota olsagina, magulikka dahldor sifatlarni hosil eta oladi. Masalan, bo'ston beayov shamol shiddatiga dosh bergani uchun quchog'i gulag to'ldi, yo'qsa bunday bo'lmasdi.

G'azaliyotda va epik she'riyatda mazkur san'atning qo'llanishi borasida juz'iy farqlar bor. G'azal janrida, ko'pincha, birinchi misrada aytilgan fikrga ikkinchi satrdayoq hayotiy misol keltiriladi:

Ey ko'ngul, jonni xayol olida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sari.

Epik she'riyatda esa ma'lum fikr avval bir yoki ikki baytda aytiladi, unga keltirilgan hayotiy misollar ham ikki – uch yoki undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Shu sabab misollar keltirilgan baytlar ham ikki – uch, ba'zan undan ko'proq bo'lishi mumkin. Bu holatni ifoda imkoniyati va fikr kengligi kabilar bilan izohlash mumkin. Masalan, Nishotiy “mehnatga chidasang, rohat ko'rasan” degan fikrni aytadi-da, shunday hayotiy misollar keltiradi:

Tutmasa gul xori balo ichra xo',
Bo'lmas edi anga bu rang-u kubo' ...
La'l agar qolmas esa sangaro,
Bo'lmas edi mehr kibi rangaro.
Chekmaguncha hashrida oh-u fig'on,
Bo'lmadi bir kimsa makoni jinon. (84-b)

Ayon bo'ladiki, epik she'riyatdagi misol tariqasida keltirilgan dalillarining bir nechta bo'lishi bilan g'azaliyotdag'i tamsildan farqlanar ekan.

Kirmasa gar mehr qaro yeraro,
Topmas edi portavi subhi ofo.
Davri falak oyni gar etmas hilo,
Topmag'usi mehrg'a ul ettizol...
G'unchaki tong olg'ucha xuni jigar –
Yutti, qilur shod ani fayzi sahar. (98-b)

Tashxis – “jonlantirish”. Hayvonlar, qushlar, umuman, jonli va jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'ati. Bu tasvir usuli adabiyot imkoniyatlarini yaqqol namoyon eta olishi va o'quvchiga badiiy adabiyot haqida eng zarur tushunchalarni bera olishi bilan boshqa tasvir vositalaridan farqlanadi.

Badiiy ijodda insoniy xususiyatlar hayvonlar, qushlar, aniq narsalargagina emas, o'zni bilan mavhum tushunchalarga ham ko'chiriladi. Farq shundaki, ko'chim hayvon, yoki qushlarga, nisbatan bo'lsa, tashxisning allegoriya ko'rinishi, jonsiz narsa va mavhum tushunchalarga nisbatan bo'lsa, tashxisning ramz turi yuzaga keladi. Demak, insoniy xususiyatlarni bunday xislatga ega bo'lmagan mavjudlikka ko'chirishning barcha ko'rinishlari tashxis san'atining tarmoqlari sanaladi.

“Husn-u Dil” tashxis san'ati eng ko'p qo'llangan adabiy yodgorliklarimizdandir. Dostonning butun mazmuni mana shu ifoda usuliga tayangan, desak xato bo'lmaydi. Obrazlarni olasizmi, hikoyatlarni tekshirasizmi, munozaralarga marujaat qilasizmi, tong tasvirlarni ko'zdan kechirasizmi, hatto boblarning peshso'zi bo'lgan nasriy parchalarga nazar tashlaysizmi, xullas, hamma-hammasida tashxis san'atiga duch kelasiz. Ularni o'qib huzur, estetik zavq tuyasiz.

Dilbari subh uyqudin ochti ko'zin,
Qildi shafaq g'ozasi gulgun yuzin.
Bo'lmoq uchun olamaro nur fosh,
Chiqti falak toqig'a ya'ni quyosh.

Ya'ni, subh dilbari uyqudan ko'zin ochgach, shafaq g'ozasi yuzini gulgun qildi. Quyosh olamga nur to'ldirmoq uchun falak toqiga chiqdi. Baytdagi “subh dilbari”ning o'zi bir tashxis, yana unga insoniy xususiyatlar: uyqudan ko'zin ochmoq, yuzga g'ozasi surmoq, chiqmoq kabilar ham ko'chirilganki, bu fikrning jozibali hamda ta'sirchan chiqishiga imkon bergan.

Tashxisda ham san'atlar uchun umumiy bo'lgan “ mantiqiy bog'liqlik” qonuni qat'iy amal qiladi. Albatta, biror bir narsa jonlantirilar ekan unga ko'chirilayotgan insoniy belgi, xususiyat o'sha narsa yoki tushunchada mavjud bo'ladi. Yoki jonlantirilayotgan narsaning vazifasi va yo harakati insondagi ma'lum xususiyat bilan o'xshash bo'ladi. Ana shu o'xshashlikka asoslanib tashxis – jonlantirish san'ati yaratiladi. Demak, tashxis – inson bo'lmagan narsani inson sifatida tasavvur qilish mahsuli ekan.

Chunki eshitdi bu so'zni pir zarq,
Ashki aro jismi aning bo'ldi g'arq. (80-b)

Ko'rguzubon G'amza duo-u sano,
So'ngra dedi: - Bilgil, ayo mahliqo! (141-b)

Jilva aning xush ko'ribon bormog'in,
Xo'sh dedi ko'zga suribon barmog'in. (121-b)

Dafning Aqli sohib sharaf oldida arqosini o'tg'a tutgondin so'ng jo'sh-u xurush qilib, og'zidin davrasig'a kaf sohib, doira harfidin chashmayi daryo isbot etkani, obi hayvondek ravonoso va jonfiza sizlar aytib, Shohi Aqlni qariyb mot qilg'ani. (166-b)

Nishotiy yana irsoli masal, talmeh, iyhom, tajnis, iztiqoq kabi she'riy tasvir usullaridan kam samarali foydalangan. Poetik mahorati asarning badiiy qimmatini oshishiga, mazmunning to'q va tugal bo'lishiga sabab bo'lgan. Yuqoridagi mulohazalar "Husn-u Dil" haqidagi ayrim xulosalarimiz. Doston badiiyati bemalol bundan ko'ra kengroq ko'lamdagi tadqiqotlar uchun manbaa bo'la oladi. Darvoqe, dostonning poetik-badiiy fazilatlarini haqida so'zlaganda Nishotiyning shohbayt bitish mahoratini chetlab o'tishning sira iloji yo'q.

Bu hikmatli baytlar inson umri, hayotning ma'nosi, dunyo, tariqat, tasavvurmohiyati haqida. Mazmuni boy, mantig'i kuchli baytlar dostonida bisyor. Bunday baytlar Nishotiyning shoir, mutafakkir sifatidagi mahoratini anglashga yordam beradi. Shu bois shoirning ba'zi shohbaytlari havola etamiz.

Kimki erur voqifi asrori shoh,
Bo'lg'sidur hol anga mundoq taboh. (61-b)

Kimki fano bahridda g'avvos emas,
Durri baqo topmog'iga xos emas. (84-b)

Shukr sharobiga ko'ngil bo'lsa xum,
Va'dadur anga laazidanna kum. (93-b)

Saltanat-u izz-u fano boshqadur,
Maskinat-u faqr-u fano boshqadur. (158-b)

Shoh demak kimsaki aylab havas,
Oxir anga oh bo'lur hamnafas. (185-b)

Mush ila ishq o'lmag'usi yoshirun,
Zohir etar o't bor ekasini tutun. (243-b)

Dard demoq lozim erur, ey habib,
Ongakim mushfiq esa, yoxud tabib. (246-b)

Kimki talab yo'lida bo'lsa fano,
Topg'usi sarchasmai obi baqo. (263-b)

Jomi muhabbat tilar elning mudom –
Chorasi bechoralig' o'ldi tamom. (304-b)

Dun elining dulog' erur peshonasi,
Yaxshi elning yaxshidur andishasi.
Charx tabibiki erur piyra zol,
Og'risa bosh bergusidur g'o'shmol.

III. 1. Doston badiiyyatini o'rgatish va amali tavsiyalar.

Bugungi kunga kelib inson ongi takomil kasb etib, oddiy masalalarga emas, murakkab mushohadalar yuritushga ham qodir bo'lib qoldi. Bu o'zgarish, ayniqsa yoshlarimiz tafakkur tarzida namoyon bo'lmoqda. Tezkor zamonda, shiddatli jarayonda yoshlarni barkamol qilib voyaga yetkazish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning eng asosiy va eng yaxshi vositalaridan biri siz-u biz bilgan adabiyotdir .

Adabiyot- eng zo'r tarbiya vositasi. Ammo u salobatli, vazmin va o'ta bosiq tarbiyachi. Zamon esa tez qadam, shiddatkor. Xo'sh, adabiyot va zamon o'rtasidagi ushbu ziddiyatni qanday hal qilish lozim? Bu savolga, shubhasiz, metodika fani javob beradi.

Metodika “kimga nimani qancha” o'qitish lozimligini bugungi kun nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, ta'lim tizimidagi ishlarini xususan , darsliklarni yanada takomillashtirish, ijobiy ma'noda taftish qilmog'i lozim. Bunday ishlar

“o’quvchiga eng ko’p darajada naf yetkazishini ko’zlab” qilinsa, nur ustiga nur bo’lar edi. Amaldagi o’quv darsliklarida qator og’zaki va yozma dostonlar berilgan. Ma’lum darajada tahlil ham qilinadi. Biroq bugungacha biror-bir darslikda Nishtoiyning “Husn-u Dil” dostoni, hatto u haqdagi ma’lumotlar uchramaydi. Vaholanki, “Husn-u Dil” har jihatdan o’rganishga, o’rgatishga arzugulik.

Sakkiz oylik pedagogik amaliyot mobaynida mazkur dostonni “kimga qancha qanday” o’qitish kerakligini o’ylab, ma’lum to’xtamlarga keldik. Quyida ular bilan o’rtoqlashamiz.

Insonni tarbiyalashga qaratilgan vositalar bisyor. Ularning barchasiga birdek xos bo’lgan xususiyat-ma’naviy mukammallik, Komillik sari yetaklashdir. Demak, maqsad bir. Ammo maqsad tomon borish yo’llari turfa. Adabiyot olamni obrazlar-o’xshatishlar orqali inkishof etishi bilan boshqa tarbiya vositalaridan farqlanadi.

Badiiylik –adabiy asarlarga qo’yiluvch dastlabki shatlardab bo’lib, har qanday asarning badiiy-estetik fazilatlarini o’rganish orqali uning mazmunini kashf etish mumkin.

“Husn-u Dil” badiiy ko’rkamligi, estetik ta’sirchanligi bilan tahsinga sazovor. Dostonning badiiy xususiyatlarini o’sib kelayotgan yosh avlodga o’rgatish ularning estetik didini shakillantiradi, bilimni boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi. “Husn-u Dil”dagi she’riy san’atlar, ramziy obrazlar va ifoda usullarini saboq berish jarayoniga tadbiiq etish lozim. Masalan, o’rta maktablarning 5-sinfida biror bir she’riy san’at o’rgatilmaydi. Bu holatni yosh bilan bog’liq sabablar orqali izohlash mumkindir. 5-sinfda ham shu hol takrorlanadi. Ammo biror bir badiiy asar qismatini ko’rsatuvchi hikmatli so’zlar haqida tushuncha beriladi. Bizningcha, hikmatli so’zlar haqida 5-sinfda ma’lumot berilgani ma’qul. Chunki purma’no so’zlar o’quvchini ko’pam qiynamaydi, balki ularni fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi. Namuna tariqasida keltirilayotgan misollar ham nihotda kamyob kamuchram bo’lsa, o’quvchini tezda jalb etadi.

Nishtoiyning “Husn-u Dil”i g’oyatda shoh baytlarga boy. Shoir afarizm, maqol darajasidagi baytlarning nodir namualarini yaratgan. Chunonchi:

Umr ikki hissasi murdin nishon-
Bo'lsa ne deb bo'lmag'usi talx jon?!(164-b)

Yoki:

Ob-sharob ustida shardur yaqin,
Istamasang shar, ango bo'lma qarın.(120-b)

Ushbu hikmatli so'zlarning birinchisi umr, uning mazmuni haqida bo'lsa, ikkinchisi sharmandalikdan, sharmanda qiluvchi narsalardan tiyilishga undaydi. "Husn-u Dil"da bunday hikmatli baytlar juda ko'p, ularning mavzu doirasi, mazmun ko'lami ham ancha keng. Ularda ko'proq ishq, do'st, manmanlik, takabburlik, sabr, qanoat haqida gapiriladi. Shu ma'noda 5-sinf darsligiga "Husn-u Dil" dagi do'stlik, sabr yaxshilik va yomonlik mavzularida bitilgan pandona ruhdagi hikmatli so'zlarning kiritilishini istardik. Quyida hikmatli so'zlardan ayrim namunalar keltiramiz.

Dard demoq lozim erur, ey habib,
Ongakim mushfiq esa, yoxud tabib. (246-b)

Sabr qil-u kesmagil ondin umid,
Sabr erur chunki farahga kalid. (305-b)

Ranj-u sitam tuxmini eksa birav,
O'rg'usudur ham oni vaqti darav. (329)

Mushk ila ishq o'lmag'usi yashurin,
Zohir etar o't bor ekanni tutun. (243)

Dun elinung dunlug' erur peshasi,
Yaxshi elning yaxshidur andeshasi. (370)

6-sinfga kelib masal janri haqida ma'lumot beriladi. Ushbu mavzu 5-sinfda o'tilgani yaxshiroq. Chunki ayni shu mavzu bu sinfda ham o'rgatiladi. Shuningdek 5-sinf o'quvchisi 12 yoshga to'lgan bo'ladi. 12 yoshli bolaning esa ertak yoki multfilm ko'rmagan bo'lishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalar o'qigan, eshitgan ertaklarida, ko'rgan multfilmlarida inson bo'lmagan narsalarning insondek harakatlanishini, gapirishini biladi. Demak, bu yoshdagi bolalar masal haqida gapirilsa, tushuna olishlari mumkin.

"Husn-u Dil"da har jihatdan Ezop, Gulxaniy masallari bilan bellasha oladigan masallar berilgan. Ularni albatta o'rganishimiz, yosh avlodga o'rgatishimiz shart. Bu haqda keying faslda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Doston tashbih, mubolag'a, husni ta'lil, tazod talmeh, irsoli masal kabi san'atlarga juda boy. Ulardan dars jarayonida bemaol o'quv material sifatida

foydalanish mumkin . Masalan , 6-sinf uchun nisbatan osonroq bo'lgan talmeh, mubolag'a, tazod, irsoli masal kabi she'riy ifoda usullarini o'rgatish maqsadga muvofiq va bu jarayonda boshqa so'z ustalari bilan bir qatorda Nishto'iy ijodiy meroidan, xususan, "Husn-u Dil"dostonidan manbaa sifatida foydalanish mumkin. Asardan olinadigan sheriy parchalar bolaning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib, tanlansa, shuningdek misollar avvalo tarbiyaga yo'naltirilgan, axloq-odobga chorlovchi xarakterda bo'lsa ma'qul bo'lardi. Biz quyida 6-sinf o'quvchilariga mos kelishi mumkin bo'lgan san'atlardan namunalar keltiramiz.

Kelmas edi ko'rgali ani ajal,
Chunki ajalga edi andin xalal. (11-b) (mubolag'a)
Bahr yuzidin uchubon murg'i mavj,
Dashti fano sari alar tutdi avj. (93-b) (tashbih)
Buzdi hamma anjumani anjumi,
Sarsar aningdekki sovurg'ay qumi. (79-b)(tashxis)
Hotami toyiki erur dilpazir,
Bordur aning matbahidin bir asir. (19-b)(talmeh)
Lek demish kimsaki diqqatlidir,
Osh egasi birla yesa totlidir. (30-b)
So'ygay edim tutmasa bu so'z qo'lim,
Kim der ulus:Elchiga yo'qdir o'lim. (45-b)
Har kishining bor esa gar aqli tuz,
Avval anga ko'z keragu so'ngra so'z. (150-b)(irsoli masal)

VII sinfda, hozirda mavjud bo'lgan darsliklar orasida asarning badiiy xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan mavzularning eng ko'p qismi berilgan. Vaholanki, 8-,9-sinflarda ham asarning badiiy –estetik jihatlari borasida mazkur sinfdagichalik ko'p tushunchalar sharhlanmaydi. Demak, darsliklardagi she'riy san'atlarni tartibga solish: qaytariqlarni yo'qotish, osondan qiyinga tamoyili asosida teng taqsimlash-dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, 8-sinfda o'rgatiluvchi irsoli masal 7-sinfda ham o'rgatilishini hisobga olib, o'rniga husni ta'lilni kiritgan ma'qulroq. Tadqiq etayotganimiz "Husn-u Dil"ayni shu –husni ta'lil san'atining bitmas-tuganmas manbai. Asardagi quyidagi namunalarni kiritishni tavsiya etardik:

Balki erur elga bu so'zdin muredd,
Obi hayi-u adab, ey xushnihod.
Obi hayo yozdi chu ahli qalam,
Sahv ila "to" oxirig'a bo'ldi zam.

Abi hayog'a edi naqsh sabot,
O'lg'ali to sahvi o'qurlar hayot. (66-b)
Shoh kulub dediki:-Ey bexabar,
San deganing bordurur ul siym-zar,
Ahli qalam yozganida mol-u joh,
Sahv ila yozmishtur ani ma-vu choh.
Lomini isqot etib ahli qalam,
Barcha g'alat sorig'a qo'ydi qadam. (71-b)

IX sinfga kelib she'riy san'atlar borasidagi vaziyat ancha o'zgargan. Mazkur sinfda "Tashxis" san'ati berilgan, xolos.

Darslikka e'tibor berilsa, undagi ko'pgina badiiy parchalar epik she'riyat namunasi ekani ma'lum bo'ladi. Shu bois epik she'riyat uchun xos bo'lgani tanosub, tazod, sifatlash, tamsil, kitobot kabi bir qator sheriylar san'at namunalarini kiritish o'quvchilar ongini, fikrini, dunyoqarashini, badiiy didini o'stirishga xizmat qilardi. Tanosub, tazod, sifatlash, tamsil, kitobotning betakror namunalarini "Husn-u Dil"dan olish mumkin. Ulardan amaliy tahlil jarayonida foydalanish foydadan holi emas.

Ayniqsa, tashxis san'atini tavsiflashda "Husn-u Dil"dan kerakli va zarur manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki "Husn-u Dil" boshdan-ayoq jonlantirish san'atiga asoslanib yoritilgan asardir.

III.2. "Ko'chim", "Ramz", "Majoz" tushunchalarini o'quvchilarga o'rgatishda "Husn-u Dil"dan foydalanish va buning afzal jihatlari

Badiiy adabiyot ko'chimga asoslanish bilan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Shu bois "ko'chim" nima, qanday turlari bor, degan savollarga adabiyot darsliklarida javob bo'lishi lozim. Ko'chimni yaxshi tushunish o'quvchining badiiy adabiyotni tushunishini bir necha barobar osonlashtiradi.

Joriy darsliklardan 7-sinfda "ko'chim" uning turlari haqida ma'lumot beriladi. 7-sinf darsligining 302-sahifasida ko'chim haqida shunday deyiladi: "Ko'chim qudratli, ko'rkam tasvir vositsi bo'lib, u kitobxonning tasavvur olamini kengytiradi, tasvirlanayotgan tuyg'ularni bevosita his qilishga, asar qahramonlari

holatini tuyishga yordam beradi...” . Adabiyotshunoslik ilmida ko’chimning majoz, istiora ramz singari ko’rinishlari bo’ladi.

Majoz adabiy asarda o’quvchiga noaniqroq bo’lgan tushunchani ko’pchilikka ma’lum bo’lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalashdir...

Ramz ham ko’chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O’quvchi anglashi murakkabroq bo’lgan mavhum axloqiy ma’naviy sifatning shu sifatlarga ko’proq ega bo’lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanshiga ramz deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamaları bilan ham yuritiladi. O’zbek mumtoz adabiyatida may-hayot ramzi, gul-mashuqa ramzi²⁵ .

Ma’lum bo’ladiki, ko’chim turlariga berilgan ta’riflarda farqlamsizlik bor. O’quvchi ularni tafovvtlashda farqlamsizlik bor. O’quvchi ularni tafovvtlashda ikkilnishlarga uchrashi mumkin. Ularni imkon qadar aniqlashtirish kerak.

Majoz-ko’chma ma’nodagi so’z bo’lib , mumtoz adabiyotshunoslikda so’zni o’z ma’nosida emas, boshqa bir ko’chma ma’noda ishlatish holatlarining umumiy nomi. Demak, istiora, kinoya, sinekdoxa, ramz kabilar majozning turli asoslariga tayanuvchi navlari ekan. Hozirgi adabiyotshunoslikdan biri, ya’ni allegoriya sifatida qo’llash keng ommalashgan.

Ramz esa majozning biroz takomillashgan, sayqallangan yuqoriroq darajasidir. Ramz(arabcha)-imo, ishora, imlash degan ma’nolarni anglatadi; ko’chim turlaridan biri faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko’chma ma’no kasb etuvchi so’z yoki so’z birikmasi-ramzdir. Shunigdek ramz-obrazlilikning bir turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, farqi: ramz kontekst doirasida ham o’z ma’nosida, ham ko’chma ma’noda qo’llanadi. Ramzning ma’nosi o’zi qo’llanayotgan jumla tarkibida va shartdan xabardorlik bo’lganda oydinlashadi: masalan, may tasavvuf adabiyatida ramz hisoblanadi. Mayning –Haq ishq degan ma’nosini tushinish mayni ramziy ma’noda tushunishdir. Yoki mayni o’z ma’nosida –mast qiluvchi ichimlik ma’nosida ham tushunish mumkin. Demak, ramz ma’lum narsaga ma’lum ma’noni shartli ravishda biriktirish ekan.

²⁵ Yo’ldoshuv Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo’doshbekov J. Adabiyot.-T.:Sharq, 2009.

Ramziy obraz tushunchasi 7-sinf darsligida CH.Aytmatovning “Oq kema” qissasidan olingan parchadan so’ng izohlanadi. Bola avval asar mazmunini tushunib yetishi kerak. Buning uchun asar bilan to’liq tanishish lozim. Darslikda esa parcha berilgan. Parchani o’qib qissadagi ramzlar mohiyatini anglash mumkin. Demak, “Ramziy obraz” tushunchasini o’quvchiga yetkazib berish uchun xavola qilingan badiiy parcha 13 yoshli bolaga og’irlik qiladi. Shu bois nisbatan soddarog’, ramziyligi yaqqol bilinib turuvchi, jozibaliroq, o’quvchini shoshiradigan darajadagi badiiy parchani kiritish yosh avlod tafakkuri rivojiga qo’shilgan munosib xissa bo’lardi.

Biz shunday adabiy parchani “Husn-u Dil”dan olishlarini istardik. Chunki aqil , nafs bonu , raqib , ishva, noz, nazar, xusun, sabr, xayol , faxr singari noanaviy obrazlarni o’qish ularni qiziqitirmay qo’ymaydi. Bu qiziqish keyinchalik ularni mazmun sari yetaklaydi.

Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni obrizli fikrlashning bir turi bo’lgan ramziylik orqali o’quvchiga ikki muxim narsani: ham ramziylikni , ham chinakam badiiy adabiyotni o’rgatadi. Bolalarda obrizli fikrlash nima , uning qanday shartlari bor degan savolar bor bo’lsa o’sha savollarga xam ushbu doston bimalol javob beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ko’chim, ramziylik qaysi sinfda, qachon o’rgatilmasin, unga mos adabiy parcha berilishi maqsadga muvofiq. Bunday adabiy parcha mumtoz adabiyotimizning mumtoz namunasi bo’lgan “Husn-u Dil”da istalgancha topiladi. Mazkur dostondan darsliklarga parcha kiritish yoshlar tafakkuri tadrijiga, qolaversa millat rivojiga qo’shilgan munosib xissa bo’lardi.

Xulosa

Muhammadniyoz Nishotiy adabiyotimiz hayotiy lirik asarlar, “Husn-u Dil” va “Qushlar munozarasi” kabi asarlar muallifi sifatida tanilgan xassos ijodkordir. Shoirning serqirra ijodi o’zigacha bo’lgan o’zbek adabiyoti, umuman sharq adabiyoti ilg’or ananalari bilan uzviy xolda kamolga yetadi. Sharqda “Xush va Ishq”, “Qissai Xush va Ishq” nomlari bilan ko’pgina asarlar mavjud bo’lib, ular qadimiy Xush-u Dil afsonasi asosida yaratilgan XVIII asr shoiri Nishotiy xam bu ananaviy syujetga murojat qilib, “Xush-u Dil” dostonini yozdi. Bu asarni yaratishda u o’zigacha yaratilgan shu sujetdagi asarlardan, ayniqsa, Fattohi va Mushfiqiylarning fors-tojik tilida yozgan qissalaridan ilxomlangan.

Olima M.Qosimovaning takidlashicha, Nishotiy dostonini shu xildagi boshqa dostonlardan ko’p jixatlari bilan farqlanadi. Jumladan, Fattohiy dostonida Nishotiy “Husn-u Dil”dan uchrovchi Murshidi Ilxom, qayiqchi, Faxr, Bulbul va Boz kabi obrizlar uchramaydi. Shuningdek, Fattohiy dostonlarida Gul va Daf, Nahl va Nay, Binafsha va Chang, Kosai ohin va Nargis munozalari bo’lib o’tganligi haqidagi ma’lumot berilgan bo’lsa, Nishotiy dostonida munozaralarning to’lig’ bayoni berilgan.

Nishotiy “Xamsa” yozganmi yo’qmi-bu hozircha bizga noma’lum. Biroq unda shunday niyat bo’lgani aniq. Va “Husn-u Dil”ni xamsanavistlar Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar “Xamsa”sining ilk dostoniga javob tariqasida bitgani xam xaqiqat. Balki yillar o’tib qolgan dostonlari xam topilib qolar. Ammo Nishotiyning saloflari yoniga xomis - beshinchi bo’lib qo’shilmoqqa ahd qilganining o’ziyoq, istedodidan, shoirlik maxoratidan, saloxiyatidan darak beradi. “Husn-u Dil” xamsa yozish ananasi talablariga to’la mos keladi. Shu bois “Husn-u Dil”ni “Xamsa”-langanga javoban yozilgan doston, deb atadik.

Dostonning kompazitsion tuzilishi ham diqqatga molik. Har bir bop sajda bitilgan nasriy parchalarga, sheri muqddima o’rnidagi tong ta’siriga, voqealarning batafsil bayoniga, tugallanma o’rnidagi (tong) Olloga iltijo va haqiyga murojat qisimlariga bo’linadi. Shuningdek, dostonda “Chang”, “Daf”, “Nay”, “Nag’ma” xikoyatlari Hamda “Boz va Bulbul”, “Daf va Gul”, “Nay va Nahl”, “Kosai Chin va

Nargis”, “Binafsha va Chang” singari masallar kabi turli fikr ifodalash shakllarini bir maqsadga izchil ifodalash shakllari bir maqsadga izchil biriktirish –ulkan mahoratni talab qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo’ldiki, Nishotiyning “Husn-u Dil”da bo’lganidek haqiqiy ishq majoz yusinida bitilgan ekan. Dostondagi Aql, Fuod, Ishq, Xusun, Nazar, Sabr, Himmat, Xidoyat shaxri, Ofiyat shahri, Shuhrat shaxri, Zarq, Raqib , Vaxm, Noz,Qomat, G’amza kabi obrazlarning barchasi majoziy – ramziy bo’lib, tasavvufiy –irfoniy mazmun anglatadi. Ya’ni bular bir solikning aqli , yuragi , ishq, nazari, sabri, himmati, ofiyatdan, kibrdan, mol-dunyodan, riyokorlikdan o’tib hayotga yetgani kabi orifona mohiyat kasb etadi. Adabiyotshunosligimizdan hozirgacha dostonning bunday talqini uchramaydi. Shu bois mazkur jihatlari borasidagi fikrlarimizda nuqsonlar bo’lish ehtimoli bor. “Haqni majoz usulida tasvirlashdan maqsad uni real hayotiy material orqali ko’rsatishdir; tirik insonlar shavq-u zavqi, g’am va shodliklari kurash va drammalari obrizlarda voqea-hodisalar tasviri jarayonida beriladi, natijada so’fiyona dard g’alayoni keng o’quvchilar tabiga mos keladigan sarguzasht ishqiy qissa ichida gavdalanadi. Buni falsafiy-tasavvufiy ma’noni xayotiy material orqali badiiy talqin etish, deb atash mumkin. Zotan , xayotning o’zi butun murakkabligi , ziddiyatlari bilan iloh ilmining tasviri , obrizlarda ko’rinishidir. Shunday ekan, shoixoh majoz yo’sinida, xoh to’g’risidan to’g’ri haqiqatni qalamga olsin-u Buyuk Tangri ma’rifatining badiiy talqinchisi bo’lib maydonga chiqadi”

“Husn-u Dil” badiiyati nihoyatda mukammal ishlangan epik poeziya namunasidir. Unda sajdan tortib she’riy ifoda shakllarining deyarli barcha ko’rinishlari uchraydi. Xalq maqollari, tuhmatlaridan, hadislardan unamli foydalanadi. Shohbaytlar bitadi: Hikmatli so’zlarida hayotni, umrni taftish etadi:

Umr ikki xisassi mo’rdin nishon,

Bo’lsa ne deb bo’lmasin talx jon?!

Nishotiy dostonida eng sevib o’llagan san’ati husni ta’lildir. Bu tasvir usulida shoir adabiyotimizda kamyob bo’lgan badiiy lavhalr yaratgan.

Balki erur elga bu so’zdin murod,

Obi hayo-u adab, ey xushsuhod.
Obi hayo yozdi chu ahli qalam,
Zahi ila “to” oxirig’a bo’ldi zamm.
Obi hayog’a edi naqshi sabot,
Olg’ali to sahv o’qurlar hayoy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-T.:O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Y.:Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonosida.-T.: O'zbekiston,2012.
4. Karimov I.Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-T.: O'zbekiston,1999.
5. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: O'zbekiston, 1997.

Ilmiy asarlar

6. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand,1960
7. Abdullaev V XVII-XVIII-asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dokt.diss.Samarqand, 1958.
8. Abdullaev V. Nishotiy lirikasi//O'zbekiston va adabiyoti.1960. 6-son.
9. Abduvohidova M. Nishotiyning “Shohboz va Bulbul” munozarasi // Abadiy meros/. –T. 1976. 3-son.
10. Adizova I. O'zbekiston mumtoz adabiyoti tarixi. –T,2006.
11. Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar.-T1983
12. Bayoniy.Tavorixi Xorazm.O'z SSR .T.A Sharqshunoslik instituti.
13. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. – T. : Fan, 1974.
14. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari. –T., 1963.
15. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – T. : G'. G'ulom, 1991.
16. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T. : Fan, 2011.
17. Haqqulov I. Kamol et kasbkim. – T. : Cho'lpon, 1991.
18. Haqqulov I. G'azal gulshani. – T. : Fan, 1991.
19. Hojiahmedov A. Husni ta'lil san'ati. – T. : Yangi asr avlodi, 2008.
20. Hojiahmedov A. She'riy san'atlarni bilasizmi ? – T. ; Sharq, 2001.
21. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T. : Sharq, 1998.
22. Homidov H. Qirq besh alloma hikoyati. – T.: Fan, 1995.

23. Jo'rayev Y. Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalari tadqiqi. Fil., fan., nom., dis... _ T. : 2012.
24. Komilov N. Tasavvuf. – T. : Movaraunnahr-O'zbekiston, 2009.
25. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T. : Muharir, 2011.
26. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. – T. : 1961.
27. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. – T. Fan, 1975.
28. Qosimob B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – T., 2004.
29. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T. : Akademnashr, 2010.
30. Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchillik. – T. : 1973.
31. Sultonmurod O. va boshqalar. Adabiyot. 8-sinf uchun garslik-majmua. – T.: O'zbekiston, 2010.
32. Sulton I. Adabiyot nazaryasi. – T. : O'qituvchi, 1986.
33. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T. : G'. G'ulom, 2010.
34. Tursunov M., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi. – T. : 1982.
35. To'xliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – T. : O'qituvchi, 2002.
36. Xolid R. Nishotiy va „Husn-u Dil“ dostoni// O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – T., 1962. 4-son.
37. Xolid R. Nishotiy. Husn va Dil. Lirik. – T. : Adabiyot va san'at, 1967. 2 – 14-betlar.
38. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. – T. : Sharq, 2009.
39. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. – T. : 1961.
40. O'zbek adabiyoti. III tom. – T. : 1959.
41. Sharafiddinov O. O'zbek adabiyoti tarixi xerostomatsiyasi. – T. : 1945.
42. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: Adabiyot va san'at, 1972.